

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«Himoyaga ruxsat etildi»
Pedagpgika fakulteti dekani
f.m.f.n.,nomzodi _____ T.Abdullayev
«____» _____ 2019 -yil

BT 46-15 yo'nalishi bitiruvchisi

**AXMADXO'JAYEV UMIDXO'JA SHAYDULLO O'G'LINING
“2-SINF ONA TILI DARSLARIDA SANOQ VA TARTIBNI BILDIRUVCHI
SO'ZLAR USTIDA ISHLASH USLUBIYATI” mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

«Himoyaga tavsiya etildi» BMI rahbari:
Boshlang'ich ta'lif metodikasi B. Qo'chqarov
kafedrasi mudiri _____
«____» _____ 2019 y.
f.n.n.vbdonsent.M.H
«____» _____ 2019 y.

Namangan–2019

MUNDARIJA

Kirish.....	4-7.
I -bob. ONA TILI DARSLARIDA SON SO'Z TURKUMINI O'RGANISH MUAMMO SIFATIDA.....	8
1.1.Boshlang'ich sinf ona tili darslarida morfologiya bo'limiga kirish va unda so'z turkumlari tahlili.....	8-19
1.2. Son – so'z turkumini o'rganishda boshlang'ich sinf DTS talablari	20-26
1.3. 2-sinf ona tili darslarida sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarga oid mashqlar va ularning tahlili.....	27-38
II -bob. O'QUVCHILARGA 2-SINF ONA TILI DARSLARIDA SANOQ VA TARTIB SONLARNI BILDIRGAN SO'ZLARNI O'RGATISH USLUBLARI.....	39-
2.1. Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rgatishga oid mashqlarni bajarishda interfaol usullardan foydalanish.....	39-60
2.2. Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rgatishga oid mashqlarni bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.....	61-72
2.3. Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rgatishda fanlararo bog'lanishi.....	73-83
TAJRIBA-SINOV ISHI VA NATIJALARI.....	84-89.
XULOSA, TAVSIYALAR.....	90-91
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	92-93

**2-sinf Ona tili darslarida sanoq va tartibni bildiruvchi so'zlar ustida ishlash
uslubiyati**

Kirish.

**I -bob. ONA TILI DARSLARIDA SON SO'Z TURKUMINI O'RGANISH
MUAMMO SIFATIDA**

- 1.1. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida morfologiya bo'limiga kirish va unda so'z turkumlari tahlili
- 1.2. Son – so'z turkumini o'rganishda boshlang'ich sinf DTS talablari
- 1.3. 2-sinf ona tili darslarida sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarga oid mashqlar va ularning tahlili.

**II -bob. O'QUVCHILARGA 2-SINF ONA TILI DARSLARIDA SANOQ VA
TARTIB SONLARNI BILDIRGAN SO'ZLARNI O'RGAТИSH
USLUBLARI.**

- 2.1. Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rnatishga oid mashqlarni bajarishda interfaol usullardan foydalanish.
- 2.2. Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rnatishga oid mashqlarni bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.
- 2.3. Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rnatishda fanlararo bog'lanishi.

TAJRIBA-SINOV ISHI VA NATIJALARI.

XULOSA, TAVSIYALAR.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. “Ta’lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish”¹ bugungi kundagi g’oyat dolzarb masalalardan biri sanaladi. Zero, “Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi fan uchun hech nimani ayamayotgan, mamlakat gullab yashnayotganligini va bunday davlat hamma yaxshi narsalarni odamlarning kuch g’ayratini ham, moddiy texnika resurslarini ham o’zida jamlayotganligini yaqqol ko’rsatmoqda”².

Albatta, bundan O’zbekiston xalqi mustasno emas. Darhaqiqat, “Mustaqil O’zbekiston davlatining siyosati insoniylik va ezgulik tamoyillariga asoslanadi”³. Shuni alohida unutmaslik kerakki, “Mamlakatimizda har tomonlama munosib yoshlarni vatanimiz kelajagi uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olishga qodir bo’lgan jismoniy va ma’naviy sog’lom, barkamol avlodni tarbiyalash pedagoglar oldidagi mas’uliyatli vazifalardan biridir”⁴. Zero shuni alohida aytish mumkinki, “Taqnidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak!”⁵. Albatta, bundan boshlang’ich ta’lim ustozlari hamda ona tili fani ham mustasno emas. Zero, ona tili fani o’quvchilarining tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin fikrlay olish, o’zgalar fikrini anglash, o’z fikrlarini og’zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishga, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo’la olish ko’nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan boshlang’ich 2-sinf ona tili darslarida sanoq va tartibni bildiruvchi so’zlarni pedagogik texnologiyalar asosida o’rgatish bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

¹Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси// “Халқ сўзи” газетаси. №8.

²Каримов И. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида”. Тошкент. “Ўзбекистон” 2011 йил 82-бет.

³Каримов И. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида”. Тошкент. “Ўзбекистон” 2011 йил 26-бет.

⁴Каримов И. “Барча режа ва дастурлримиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласи”. “Маърифат” газетаси № 7-сон 2011 йил. 4-бет.

⁵Мирзиёев Ш. Танқидий тахлил, қатъий тартиб интизом вашахсий жавобгарлик - хар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак!// “Халқ сўзи” газетаси 2017 йил № 32.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi va vazifalari. O'quvchilarni bugungi kun nuqtai nazaridan boshlang'ich sinflarda morfologiya bo'limidagi "Sanoq va tartibni bildiruvchi so'zlar" mavzusini o'rgatishning uslublarini ishlab chiqish va tahlil qilishni asosiy maqsad qilib qo'ydik va quyidagi vazifalarni o'z oldimizga qo'ydik:

- Dars jarayonida so'zning lug'aviy ma'nosi ustida ishlash;
- So'z turkumlarini xarakterli belgilarini o'rgatish;
- So'z turkumlarini ma'no guruhlari ustida ishlash, ularni o'rgatish;
- Eng asosiysi, boshlang'ich sinflarda "Sanoq va tartibni bildiruvchi so'zlar" ni o'rgatish jarayonini kuzatish va tahlil qilish. Ushbu hollarda dars o'tish jarayoni usullarini ishlab chiqish;
- O'quvchilarni bugungi davr talabi nuqtai nazaridan milliy istiqlol g'oyasiga sadoqat ruhida tarbiyalashga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ishlab chqilgan usullarni maktab ta'mini jarayoniga tadbiq etish;
- An'anaviy dars o'tish shakli bilan noan'anaviy dars o'tish shakli orasidagi farqni izohlash.

Bitiruv malakaviy ishining bosqichlari:

- 1.Mavzu bo'yicha adabiyotlar toplash (2018 yil sentabr-oktabr).
- 2.Reja tuzish va bitiruv malakaviy ishining I bobni nazariy qismini yoritish (2018 yil noyabr-dekabr).
- 3.Mavzuning amaliy bosqichi II bobini yoritish (2019 yil yanvar-fevral).
- 4.Tajriva-sinov ishlarini olib borish (2019 yil fevral-may).
- 5.Tavsiya va xulosalarni yoritish (1-iyungacha).

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Boshlang'ichsinf ona tili darslarida sanoq va tartibni bildiruvchi so'zlardan doydalanib, yosh avlodda so'lom dunyoqarash va ilmiy tasavvurlarni shakillantirishning mazmuni, metodlari va usullarini aniqlash

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasining Konisitutsiyasining, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", umumiyl o'rta ta'lim muassasalari uchun darsliklar va o'quv metodik komplekslarni tanlov asosida tanlab oliosh tartibi to'g'risida Nizon, umumiyl o'rta

ta’limni yanada takomillashtirishni ta’minlashga doir qo’shimcha chora tadbirlar to’g’risida O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining qarorlari, O’zbekiston Respublikasi Prezidentinin ta’lim-tarniya jarayoning takomillashtirishga oid yondashuvlari, tadqiqot mavzuiga oid ilmiy – pedagogik, falsafiy, psixologik manbalar.

Bitiruv malakaviy ishining o’rganilish darajasi: Sanoq va Tartibni bildiruvchi so’zlar ustida ishlash uslubiyoti buguni kunga qadar umum filologik jihatdan ancha jiddiy tekshirilganligini kuzatish mumkin. Ayniqsa K.Qosimova, M.Yusupov va boshqalarning yaratgan ilmiy uslubiy qo’llanmalarida, onatili o’qitish metodikasidaham buni ko’rishimiz mumkin. Shunga qaramay, u boshlang’ich siniflarda ona tili o’qitish metodikasi soxasida maxsus tadqiqot olib borilmaganligi ishimizning dolarbligini belgilaydi. Men shularni etiborga olan xolda sanoq va tartibni bildiruvchi so’zlarni boshlang’ich sinf ona tili darslarida o’rgatish uslubiyatini tadqiq qilmoqchiman.

Bitiruv malakaviy ishining tanlangan obyektlari va usullari.

Bitiruv malakaviy ishlarini kuzatish, tahlil etish va tadbiq etish usullari orqali olib bordik. Malakaviy ish ob’ekti etib “2-sinf ona tili darslarida sanoq va tartibni bildiruvchi so’zlar ustida ishlash uslubiyati” jarayoni deb belgilanadi. Nazariy bilimlarini amaliyotda qo’llash, qolaversa, bitiruv malakaviy ishing mavzusidan kelib chiqib, morfologiya bo’limi va undan o’rin olgan son mavzusini o’rganishga oid mavzularni oddiy, an’anaviy usullardan foydalangan holda tushuntirish orqali tadbiq etdik. O’quvchilar dunyoqarashini kengaytiradigan, mantiqiy fikrlashga o’rgatadigan mavzularni bugungi davr talabi nuqtai nazaridan ongli idrok etishlari uchun qulay bo’lgan usullarni zamonaviy pedagogik texnologiya asosida ishlab chiqdikki, olingan natijalar ijobiy samara bergenini ko’rsatdi.

Bitiruv malakaviy ishning asosiy yangiligi bugungi kunda shakllanayotgan yangicha qarashlar bilan izohlanadi. Tajriba-sinov ishda erishgan ijobiy natijalar esa boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun son so’z turkumini o’rganishda metodik yordam bo’ladi. Son so’z turkumini o’rganishga doir yangi pedagogik texnologiya natijalari samarasi bitiruv malakaviy ishimizdagi yangicha qarashlarning

ahamiyatli ekanligini isbotlaydi. Zero, birinchi Prezidentimiz I.Karimov yoshlarga qarata ta'kidlaganlaridek, “Ishonaman, barcha-barchangiz sizga mansub bo'lgan kuch-g'ayrat va qat'iyat, izlanish va yana bir bor izlanish, zamonaviy bilim va tajribalarni o'zlashtirish bilan o'z oldingizga qo'ygan ezgu maqsadlarga albatta erishasiz, jamiyatimizda munosib va mustahkam o'rin egallaysiz. Hech qachon bo'sh kelmang, aziz bolalarim, ertangi kun-kelajak sizniki!”¹

Bitiruv malakaviy ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni erta mmmmmmmngi kun talabi nuqtai nazaridan so'z turkumlarini bilishi, ulardan o'rinali foydalana olishi, uslublarni o'rganishga aniqlik kiritadi. Bitiruv malakaviy ishimizni yozish chog'idagi kuzatish va qarashlarimiz mavjud fikrlar asosida boyitilib, ishning nazariy qimmatini oshirishni ko'zda tutiladi.

Boshlang'ich ta'lim uslubshunosligida mazkur muammoni maxsus o'rganilganligi, bugungi kunda bu masalaning muhim tomonini hisobga olgan holda ushbu bitiruv malakaviy ishimizda ilgari surilgan fikr va xulosalar muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu malakaviy ishimizning material, ilgari surilgan fikrlar va xulosalardan boshlang'ich sinf o'qituvchilari, oliy o'quv yurti talabari, kasb-hunar kollej talabalari keng foydalanishi mumkin. Shu bilan birga viloyat, tuman maktablarida tashkil etilgan pedagogik o'qishlardan foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ish kirish, ikki asosiy bob, tajriba-sinov ishi, uning natijalari, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

¹Karimov. I. “O’zbekiston yoshlari”// ”Xalq so’zi” gazetasi 2015-yil N 217 son

I bob. ONA TILI DASTURIDA SON SO’Z TURKUMINI O’RGANISH MUAMMO SIFATIDA.

1.1. Boshlang’ich sinf ona tili darslarida morfologiya bo’limiga kirish va unda so’z turkumlari tahlili.

“So’z turkumlari mavzusini o’tishga tayyorgarlik 2-sinfdan boshlanadi. O’quvchilar Kim? Nima? Qanday? Nima qildi? Nima qilyapti? kabi so’roqlarga javob bo’ladigan so’zlar bilan tanishtiriladi. O’quvchilar shu mavzular bo’yicha turli mantiqiy mashqlar bajariladigan, chunonchi ular turli xildagi narsalarning nomlarini guruuhlaydilar va bu guruhlarga umumlashtiruvchi so’zlar topadilar, nihoyat bolalarda narsa, belgi, harakat degan tushunchalar paydo bo’ladi. Bunga 2-sinfda 44 soat vaqt ajratiladi. Mana shu soatlarda so’z turkumlari aytilmasa, narsaning nomi, belgisi, harakatini bildiradigan so’zlar so’roqlari asosida o’rgatiladi.

3-sinfda o’quvchiar 2-sinfda olgan bilimlarini umumlashtirish asosida ot, sifat, fe’l atamalari bilan tanishadilar. 3-4-sinfda ot, sifat, fe’l o’tilganda ularning ma’nosи va yarim ko’rsatkichlari bilan, chunonchi, otning narsa nomini bildirib kim? nima? so’roqlariga javob bo’lishi, birlik va ko’plikda qo’llanish, gapda boshqa so’zlar bilan bog’lanib kelishi, sifatni Qanday? Qanaqa? so’roqlariga javob bo’lishi va ot bilan birga qo’llanishi, fe’lning narsa harakatini bildirib, Nima qildi? Nima qiladi? Nima qilyapti? so’roqlariga javob bo’lishi, bo’lishli va bo’lishsiz shaklda qo’llanishi o’rgailadi. Bu mavzularni o’rganish jarayonida o’quvchilar –ma qo’shimchalarining imlosini ham o’rganib oladilar. Bu materiallarda dasturda 60 soat vaqt ajratilgan”.

Bizga ma’lumki, so’z turkumlarini boshlang’ich sinflarda ongli o’rganish katta ahamiyatga egadir. Buning uchun o’qutuvchi shu mavzularni yaxshi bilish,

so'z turkumlarining qoidalari va so'roqlarini bilishi, ularni ajrata olishni, shu so'z turkumlari qaysi so'z turkumlari bilan bog'lanib keladi yoki birga ishlatilishini, so'z turkumlarining gapdag'i vazifalarini bilishi lozim.

Yuqoridagilarni o'z o'quvchilariga ongli o'rgatish uchun boshlang'ich sinf uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari so'z turkumlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Shundagina o'qituvchi dastur materialini o'quvchilarga to'g'ri yetkaza olishi mumkin. So'z turkumlari bo'yicha quyidagilarni bilishi shart:

1.Ot - narsaning nomini bildirib, Kim? Nima? Kimlar? so'roqlariga javob bo'ladi. Otlar gapda har qanday bo'lak bo'lib kela oladi (ega, kesim, ikkinchi darajali bo'lak), otlar birlikda va ko'plikda keladi, otlar egalik qo'shimchalari bilan o'zgaradi.⁶

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	Kitobim, ruchkam	Kitobimiz, ruchkamiz
II	Kitobing, ruchkang	Kitobingiz, ruchkangiz
	Kitobi, ruchkasi	Kitoblari, ruchkalari

Kelishik qo'shimchalri bilan turlanadi:

Nº	Nomi	Turlanishi	Qo'shimcha	Bog'lanish
1	Bosh kelishik	Maktab		Fe'l
2	Qaratqich kelishik	Maktabning	-ning	Ot
3	Tushum kelishik	Maktabni	-ni	Fe'l
4	Jo'nalish kelishik	Maktabga	-ga, -ka, -qa	Fe'l
5	O'rinc-payt kelishik	Maktabda	-da	Fe'l
6	Chiqish kelishik	Maktabdan	-dan	Fe'l

Otlar atalishiga ko'ra ikki turga: atoqli va turdosh otga bo'linadi.

⁶ ¹Akramova. Sh. Ona tili darslarida jadvallardan foydalanish, // "Til va adabiyot ta'limining jurnali, N: 3, 2004 yil. 9-bet

Fe'l-narsaning harakatini bildirib, Nima qildi? Nima qiladi? Nima qilyapti? so'roqlaridan biriga javob bo'ladi. Fe'l gapda faqat kesim bo'lib keladi, shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanadi:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I	Bordim, ko'ryapman	Bordik, ko'ryapmiz
II	Bording, ko'ryapsan	Bordingiz, ko'ryapsiz
III	Bordi, ko'ryapti	Bordilar, ko'ryaptilar

Fe'llar uch zamonda keladi. Fe'llar harakatini bajarish, bajara olmasligiga ko'ra bo'lishli, bo'lishsiz fe'llarga bo'linadi.

Bordi, boradi, boryapti-bo'lishli fe'l

Bormadi, bormaydi, bormayapti-bo'lishsiz fe'l.

Sifat narsaning belgisini bildirib, qanday? qanaqa? so'rog'iga javob bo'ladi. Gapda ikkinchi darajali bo'lak, kesim bo'lib keladi. Ot so'z turkumi bilan bog'lanadi. Otdan oldin kelsa, 2-darajali bo'lak, otdan keyin kelsa, kesim vazifasida keladi. Sifatlar turlanmaydi, tuslanmayda, 3 xil darajaga ega bo'ladi: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma darajadagi sifatlar.

Son narsaning sanog'ini, tartibini bildirib, qancha? Nechta? Nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi. Gapda ikkinchi darajali bo'lak bo'lib keladi. Ot so'z turkumi bilan bog'lanadi, otdan oldin keladi. Sonlar ikki xil bo'ladi, sanoq son va tartib son.

Olmosh – ot, sifat, son o'rnida qo'llaniladigan so'z turkumidir. Men, sen, u, biz, siz, ular – kishilik olmoshlari bo'lib, ot so'z turkumlari o'rnida ishlatiladi, ot bajargan vazifani bajaradi: Karim mакtabda o'qiydi. U "a'lo" baholar bilan o'qib, o'rtoqlariga namuna bo'lmoqda.

Olmosh kelishik qo'shimchalari bilan o'zgaradi (ot turkumi kabi):

1	Bosh kelishik	men	sen	u
2	Qaratqich kelishik	mening	sening	uning
3	Tushum kelishik	meni	seni	uni
4	Jo'nalish kelishik	menga	senga	unga
5	O'rin-payt kelishik	menda	senda	unda
6	Chiqish kelishik	mendan	sendan	undan

Ma'lumki, iste'dod, qobiliyat degan iqtidor barcha bolalarda mavjud emas. Shuning uchun bola ruhiyatini yaxshi bilgan pedagog har qanday vaziyatda bola ko'nglini ko'tarib, uni bilishga, o'rganishga va ayniqsa, esda saqlab qolishga undashi, vaqtı-vaqtı bilan bu haqda eslatib turishi lozim.¹

Maktabda o'quv predmet sifatida tilni o'rganish tilning barcha tomonlarining, ya'ni fonetikasi, leksikasi, so'z yasalish va grammatikasi (morphologiya va sintaktikasi) ning o'zaro ichki bog'lanishlarga asoslanadi.

Tilning har bir tomonining xususiyati undagi til birliklarining o'ziga xosligida namoyon bo'ladi. Fonetika uchun bunday til birligi nutq tovushlari, fonemalar, leksikologiya uchun ma'nosi va qo'llanishi nuqtai nazardan so'z, grammatika uchun so'z shakllari, shuningdek, so'z birikmasi va gap, so'z yasalishi uchun morfema, tuzilish va yasalishi jihatdan so'z hisoblanadi.

Fonetika, leksikologiya bilan ham, grammatika bilan ham bog'lanadi. Tovushlar, fonemalar, bo'g'inlar tilda alohida emas, balki ma'lum leksik ma'no bildiradigan so'z tarkibida yashaydi. Fonetikaning sintaksis bilan bog'lanish, har bir gapda ma'lum ohangda bo'lishida ko'rindi. Grammatik va semantik jihatdan bog'langan so'zlar majmuasi ma'lum ohangga ega bo'lsagina gap hisoblanadi. Bunda gapning mazmuni so'zlovchining gapda ifodalangan ohangiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, ohang gapda so'z tartibi, yordamchi so'zlardan foydalananish, so'z o'zgarishlari bilan birga gap tuzish usullaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Leksikologiya so'z yasalishi bilan uzviy bog'lanadi: birinchidan, tilning lug'at tarkibi, asosan, tilde mavjud bo'lgan so'zlardan yangi so'zlar yasalishi

hisobiga to’ldirib, boyib boradi; ikkinchidan, yasalgan so’zlarning leksik ma’nosi yasama negizning moddiy ma’nosiga asoslanadi.

¹Qumri Abdullayeva Ona tiliga muhabbat. Boshlang’ich ta’lim jurnali. 2007-4-son. 5-bet

Morfologiya, leksikologiya va so’z yasalishi bilan uzviy bog’langan. Morfologiya, asosan, so’zning grammatik xususiyatlarini o’rganadi. So’zning grammatik ma’nosi doimo leksik ma’nosi bilan birga namoyon bo’ladi, har bir so’z, bir tomondan, shu so’zga tegishli bo’lgan ma’lum o’ziga xos leksik-grammatik guruhining belgilarini bildiradi, ikkinchi tomondan, u so’zning o’z leksik ma’nosi bo’ladi. So’zdagi mana shu umumiylar birlik morfologiyada, leksikadan ajralmagan holda, leksika zaminida o’rganiladi.

“Morfologiya va sintaksis har tomonlama o’zaro bog’lanadi. Morfologiyada, asosan so’zlarning grammatik ma’nosi va uni ifodalash shakllari o’rganiladi; sintaksisda so’zlarni o’zaro bog’lanib so’z birikmasi va gap hosil qilish usullari, shuningdek, gap turlari, ularning mazmuni va ishlatalishi o’rganiladi.”¹⁷ So’z morfologiyada ham, sintaksisda ham o’rganiladi, ammo o’rganish obyekti har xil bo’ladi. Sintaksisning o’rganish obyekti gapdir. Unda gap yoki so’z birikmasida boshqa so’zlar bilan ma’no va grammatik jihatdan bog’langan holda o’rganiladi. Morfologiyada so’z gapdan tashqarida ham o’rganilishi mumkin. So’zga muayyan leksik-grammatik guruhga kiradigan so’zlar bilan o’zaro munosabati bilan nuqtai nazardan qaraladi. Morfologiya va sintaksisda so’zga bundan har xil yondashish ularning bir-biriga bog’liqligini inkor etmaydi, aksincha, ular so’z va gapning o’zida yashaydi. So’zlar so’z o’rganish tizimiga ega bo’lgani tufayli gaplar aloqa vazifasini bajaradi. Shakl yasalishi va so’z yasalishi morfologiyada o’rganiladi.

Ammo gapda tadbiq etiladi, so’zlarning o’zaro bog’lanishi qoidalarini o’rganish esa sintaksi sohasiga taaluqlidir. So’z birikmasi tarkibidagi so’zlarning o’zaro bog’lanish usulini aniqlashda shu so’z birikmasiga kirgan so’z turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-bir

⁷ ¹Bekmirzayev N. Gaplarni o’zaro bog’lashga doir mashqlar//, “Boshlang’ich ta’lim” jurnali. N:3, 2008-yil, 10-bet

bilan bog'liq holda o'rganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqazo qilsa ham, grammatikaning mustaqil o'rganish esa sintaksisi sohasiga taalluqlidir. So'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning o'zaro bog'lanish usulini aniqlashda shu so'z birikmasiga kirgan so'z turkumining morfologik xususiyatlari hisobga olinadi. Bular morfologiya va sintaksisda bir-bir bilan bog'liq holda o'rganiladigan til hodisalarining ayrimlaridir. Bu aniq misollar morfologiya va sintaksis bir-birini taqazo qilsa ham, grammatikaning mustaqil bo'limi ekanini ta'kidlash uchun yetadi.

Keltirilgan fikrlar boshlang'ich sinf o'qituvchilariga predmetlararo ichki bog'lanishni hisobga olgan holda ona tilini o'rganish metodikasini belgilaydi:

Shularni hisobga olib, kichik yoshdagi o'quvchilar tilning talaffuzi, grafik, leksik, so'z yasalishi va grammatik tomonlarining o'zaro bog'lanish mohiyatini tushunishlari uchun dastur materialini o'rganishda tilning aloqa vazifasi yetakchi ekani nazarda tutiladi, ya'ni kishilar bilan aloqa jarayonida tilning barcha tomonlari birgalikda foydalanishi hisobga olinadi. Shu maqsadda tilning fonetik tomonini o'rganishda so'zning ma'no va talaffuz jihatdan birlik hosil qilishini, tovushning so'z ma'nosini farqlanishdagi o'rnnini tushuntirishga katta ahamiyat qaratiladi.

Biz fikr yuritmoqchi bo'lgan bitiruv malakaviy ishimiz mavzui, 2-sinf ona tili darslarida sanoq va tartib sonlarni o'rganish bo'lgani bois biz ishimizda grammatikaning morfologiya bo'limini, uni o'quvchilar bilimining oshirishdagi ahamiyati haqida fikr yuritamiz.

O'zbek adabiy tilini o'rganish, uning tuzulishi, qonun qoidalarini yaxshi tushunish uchun morfologiya ham katta ahamiyatga ega. Grammatikaning bu bobida o'tkaziladigan dars hamda bajariladigan vazifalar g'oyat darajada keng. Chunki bu bobda o'quvchilar o'zbek tilida morfologik shakllarning boyligi, muhimligi, fikr, his va tuyg'uning eng nozik momentlarini ifoda etish uchun formalarning ahamiyati bilan tanishadilar. Shu bilan ular bunda so'zlarning ma'lum qonuniyat asosida tuzilishini va ma'lum ma'no bayon etishini chuqurroq anglab oladilar. Nutq shakllari orqali hayotdagi hodisa, voqealarni ochiq tushunish

va u tushunchani ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Morfologik shakllarning turli nutq janrlari uchun muhim ifoda vositasi ekanligini anglab oladilar.

Anglashiladiki, morfologiyaning ahamiyati va uning til darsida tutgan o'rni, vazifasi juda katta. Shuning uchun, o'rta maktab o'qituvchisi o'z ishini bu sohada puxta rejalashtirishi, bir daqiqani ham bekorga sarf qilmaslik uchun jiddiy hozirlanishi lozim. Bu maqsadni amalga oshirish uchun birinchi navbatda boshlang'ich maktab dasturi, darsligi va o'quvchilarning ma'lumot darajasidan xabardor bo'lishi kerak.

Shu bilan birga o'quvchi morfologiya sohasida hozirlanish davrida bu bob til qurilishining boshqa boblari (fonetika, leksika, sintaksis) bilan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqlarini o'stirish ishi bilan, lug'at ustida ishslash, ayniqsa, orfografiya bilan bevosita bog'lanishini hisobga olmog'i kerak. Chunki orfografiya asosida morfologik tamoyil turadi. U asosan, morfologik tamoyil asosida tuziladi.

Morfologiya bobi yuzasidan yetkaziladigan birinchi darsning o'ziyoq, "morfologiya" atamasi haqida tushuncha berib o'tishni talab qiladi. Bu so'zning yunoncha "morfe" va "logos" kabi qo'shimcha so'zdan iboratligini bulardan birinchisining shakl, ikkinchisining so'z deyilganini, demak, morfologiya so'z formalari haqidagi bilim ekanligini o'quvchilarga tushuntirib o'tish kerak. Shu bilan birga bu bobning ikkiga: 1) so'z tarkibi 2) so'z turkumlari haqidagi bo'limga bo'linishini ham aytib o'tish lozim.

"Morfologiya" bo'limiga oid ayrim materiallar boshlang'ich sinflarda o'rGANILADI. O'quvchilar son, uning ma'nosi va so'roqlari, birlik va ko'plikda qo'llanishi, kelishik qo'shimchalari bian turlanishi; sifat, uning ma'nosi va so'roqlari, ularda -roq qo'shimchasining qo'llanishi; son, uning ma'nosi va so'roqlari; olmosh, kishilik olmoshlari; fe'l, uning ma'nosi va so'roqlari, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tuslanishi, fe'l zamonlari; yordamchi so'zlar (va, lekin, biroq, ammo, shuning uchun, bilan va h.k) kabilar bilan tanish bo'lib ularni o'rGANISH jarayonida nutq bilan bog'liq ayrim zarur ko'nikma va malakalarga ega bo'lGANLAR.

Ma'lumki, o'zbek tilida so'z turkumlarining har biri muayyan ma'no guruuhlariga bo'linadi. Masalan:

"Otlarda: a) kasb-hunar; b) o'rinn-joy; v) qurol vositasi; g) qavm-qarindoshlik; d) marosimni ifodalovchi otlar;

Sifatlarda: a) rang-tus; b) baholash; v) shakl-hajm; g) maza-ta'm; d) miqdor; y) masofa kabi ma'nolarni bildiruvchi sifatlar;

Sonlarda: a) sanoq son; b) tartib son; v) dona son; g) taqsim son; d) chama son;

Fe'llarda: a) natijali faoliyat fe'llari; b) nutq fe'llari; v) jismoniy faollik fe'llari; g) holat fe'llari.”¹⁸

Morfologiyadan o'rganilgan bilimlarning foydalilik darjasini so'z turkumlarining mavjud imkoniyatlardan nutqda foydalanish bilan belgilanadi. Bu ishni, o'z-o'zidan ravshanki, morfologik-uslubiy malakalarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

So'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi.

So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosini tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

Boshlang'ich sinf ona tili darslarida son so'z turkumini o'qitishdan maqsad o'quvchilarni narsa-buyumning son-sanog'ini ifodalovchi so'zlar olamiga olib

¹⁸ Safarova R. Boshlang'ich sinflarda chuqurlashtirilgan ona tili ta'limining mazmuni// "Uzluksiz ta'lim" jurnali, N:2. 2009-yil, 3-bet

kirish, ulardan nutqda to'g'ri va o'rini foydalana olish imlo savodxonligini oshirish va talaffuz me'yorini shakllantirishdir.

Avvalo, shuni ta'kidlash kerak-ki, o'quvchilar son yuzasidan boshlang'ich sinfda zaruriy ma'lumotlar bilan qurollantiriladi. Keyinchalik o'quvchilar nutqiy faoliyatida foydalanishda katta qiyinchiliklarga duch kelmaydilar.

Shuning uchun izchil ravishda bu so'z turkumidan o'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar silsilasi uncha ko'p emas. Ular asosan, oldin so'z turkumlari bo'yicha egallagan bilimlarini takrorlaydilar, hamda son so'z turkumi, uning ikki ma'no guruhlari, qo'shma va juft sonlar, ularning imlosi va talaffuziga oid zaruriy ma'lumotlarni egallaydilar.

Takrorlash va oldingi sinflardan egallagan bilimlarga asoslangan holda o'quvchilarni miqdor va tartibni bildirib, Necha?, Nechanchi?, Qancha? So'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar sonlar ekanligini, sonlar sanoq, dona, taqsim, chama, jamlovchi, kasr, tartib sonlar kabi ma'noviy guruhlarga bo'linishi xususida xulosaga keladilar.

“Sonlarning ma'no guruhlarini o'rganish natijasida o'quvchilar berilgan so'zlarni bir turdag'i narsa-buyumning umumiyligi ma'nolarini anglatgan sonlar (to'rt kishi, sakkiz yil, o'n kun kabi), bir xil narsa – buyumlarning yakkalab, donalab, sanaladigan umumiyligi miqdorini anglatgan sonlar (uchta qalam, yigirmata qoramol, o'ttiz uchta sinf kabi), taxminiy miqdorini anglatadigan sonlar (o'ttiztacha, yuztacha, minglarcha kabi), miqdorini bir guruhga birlashtirib, taqsimlashni ifodalaydigan sonlar (ikkov, to'rtov, oltovlon kabi), narsa-buyumlarni taqsimlashni ifodalaydigan sonlarga (o'ntadan, yuztadan, mingtadan kabi), ajratadilar va ularni qiyoslash natijasida ma'no nozikligini bilib oladilar.”¹⁹

Berilgan sonlarga ma'nodoshlar topish ham o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda muhim o'rinni egallaydi. Masalan: beshta daftar, o'nta bola, mingta qo'y, uch yuz ellik tup olma daraxti kabi birikmalar bilan almashtiriladi. O'quvchilar chama son hosil qiluvchi -tacha qo'shimchasi o'rniga –ta

⁹ ¹Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi. T.: “Noshir” 2009-yil . 258-bet.

qo'shimchasi yoki yaqin so'zini qo'llashlari ham mumkin. Masalan: Yigirmatacha so'zini o'rniaga yigirmataga yaqin, elliktacha so'zini o'rniaga ellikka yaqin kabi. O'quvchilar lug'atini sonlar bilan boyitishda berilgan qoliplar asosida so'zlar hosil qilish ham o'ta foydalidir. Masalan: "bir-ot-lar" (bir zamonlar, bir vaqtlar kabi), "dona-SON-ta" (o'nta, yuzta), "dona-son-larcha" (o'nlaracha, millionlarcha) kabi. Son so'z turkumini o'rganishda o'yin – topishmoqlar, topishmoqlardan keng foydalaniadi. Bu topishmoqlar sonlarning ichki ma'no guruhlari, ma'lum bir ma'no guruhidan boshqa bir ma'no guruhidagi so'zlar hosil qilish, sonlar sinonimiyasi, ularning imlosi kabi muhim masalalarga bag'ishlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Mazkur so'z turkumini o'rganishda ayniqsa "Maktabimiz tarixi", "Qishlog'imiz tarixi", "Xo'jaligimiz tarixi", "Maktabimiz ustaxonasi jihozlarini topshirish va qabul qilish" kabi mavzularda matnlar yozdirish o'ta foydalidir. Umuman olganda "2-sinf ona tili darslaridan son so'z turkumi"ni ma'lum bir izchillikda, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Bu esa o'Quvchilarning ushbu mavzuni yanada yaxshi o'zlashtirishlariga ijobjiy ta'sir etadi. Shuning uchun ushbu bobimizda son-so'z turkumini o'rganish masalasi yuzasidan nazariy ma'lumot berdik. Bu esa ushbu mavzu bo'yicha o'quvchilarning bilim doiralarini kengaytirishiga sabab bo'ladi.

O'quvchilar quyidagilarni bilishlarni lozim: sonning shaxs va narsaning sanog'ini, miqdorini va tartibini bildirishi tartib sonlarning imlosi, sonlarning otga bog'lanib kelishi, sonlarning otga ohang yordamida bog'lanishi, sonlarning gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishi, sonlarning o'zi bog'langan so'z bilan birikma tarzida yozish, sonlarning yozuvda harfiy ifoda, arab, rim, raqamlari bilan ifodalanishi, sonlarning yozilishi (etti, sakkizinch, ikki ming uchinchi yil, IV-sinf).

Sonlarning metr, gramm kabi so'zlar bilan kelganda bitta so'roqqa javob bo'lishi (amaliy), ikkov, o'rtacha kabilar.

Son predmetlarni mavhum sanog'ini, tartibini bildirishi bilan boshqa so'z turkumlaridan ajralib turadi. Sanaladigan predmet nomini anglatuvchi ot bilan qo'llanmagan (besh, o'n, beshdan ikki) sonlar matematik son ma'nosini ifodalab,

mavhum ma'noli bo'ladi va faqat so'zlarning nomini anglatadi. Sonlar sanaladigan predmetlar nomini anglatuvchi so'zlar bilan qo'llanganda:

sanoq sonlar, -ol, -ala qo'shimchalarining qo'shilishidan narsa – buyumning guruhini, to'dasini ko'rsatuvchi kategoriya hosil qilinadi: ikkalasi, uchchalasi.

Sanoq sonlar -ta, -cha, -tab qo'shimchalarining qo'shilishidan pedmetlarning taqsimini ko'rsatuvchi kategogriya hosil qilinadi: birinchi, o'n beshinchi.

Sanoq sonlarga -ta, -cha, -lab qo'shimchalarini qo'shilishidan narsa - buyumning guruhini, taqsimini, ko'rsatkichi kategoriya hosil qilinadi: o'ntacha, minglab.

Sanoq sonlarga -ta, -dan qo'shimchalari qo'shilishidan predmetlarning taqsimini ko'rsatkichi kategoriya hosil qilinadi: ikkitadan, beshtadan.

Sonlarning juft, metr, dona kabi hisob so'zlari (nomerativlash) bilan birga qo'llanishi, ularning boshiga so'z turkumlaridan ajratuvchi o'ziga xos belgilaridan biridir.

So'z o'rgatuvchi qo'shimchalar sonning hamma turlariga ham otlardagi vazifasi kabi qo'shilavermaydi.

Sonlar so'z yasovchi qo'shimchalarini qabul qilmaydi. Boshqa so'z turkumlaridan son yasalmaydi.

Sonlardan turli so'z turkumlariga oid so'zlar yasalishi mumkin: uch-lik, ikki-lan-moq. Ba'zi sonlar hech qanday qo'shimchalarsiz ham ot vazifasida ishlatilishi – otlashishi mumkin. Qirq, yetti, yigirma (a'za marosimlari nomlari) va boshqalar.

“Sonlarning sintaktik xususiyatlari quyidagicha:”¹¹⁰

Sonlar odatda otlar bilan qo'llanib, aniqlovchi bo'lib keladi. Bu ularning asosiy sintaktik xususiyatlaridan biridir.

Sonlar hech qachon o'zicha belgi ifodalovchi so'zlarni tobe qilib kelmaydi. –aniqlovchi olmaydi.

Sonlar ot oldida aniqlovchi vazifasida kelganda ko'pincha keyingi hokim bo'lakka nisbatan ot bilan birikmali bo'lak hosil qilganda munosabatga kirishiladi:

¹⁰ ¹Hamroyev M. Ona tili. Toshkent. “Sharq” 2012-yil. 50-bet.

- uchta odam kelmaydi gapini aniqlovsiz – odam kelmaydi holida qo'llab bo'lmaydi. Bunday hollarda ot oldidagi son – aniqlovchi birga qo'llanishi shart. Ba'zan son, sifat birga otning aniqlovchi vazifasida kelishi mumkin. Bunday vaqtda o'zbek adabiy tili normasiga ko'ra ko'pincha oldin son – aniqlovchi keyin sifat aniqlovchi keladi. Ikkita baland uy. 3 ta ilg'or terimchi qizlar, o'nta paxta gulli piyola.

Sonlar gapda ko'pincha aniqlovchi, kesim, ega, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Masalan: Bir chetda gulzor oralab, gul terib yuribdi. (Oybek). Xotinning joni bitta emas, o'n ming bitta (A.Q.). Hozir uyda shunaqa antiqa bodringdan to'rttasi bor (Said Ahmad). Nimalarni o'ylayotganini ikkalasiga ham ayon (G'.G'ulom). Bir – biriga o'rtoq sonlarni yuqoriga qayd qilingan grammatik xussiyatlari uning turli ichida o'ziga xos xususiyatlar talab etiladi.

Bu xususiyatlarning turlari ichida sonlarning kam yoki ko'p miqdorda ko'rinishlariga ularning tuzilishi turlariga ko'ra yana turli xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun bu masalalar haqida tegishli bo'limlarda to'laroq ma'lumot beriladi.

Xulosa, boshlang'ich sinf ona tili darsida son so'z turkumi yuzasidan dastlabki tushunchalar beriladi va ularning bu xususidagi bilim doiralari kengayishiga erishiladi.

1.2. Son so'z turkumini o'rghanishda boshlang'ich sinf ona tili DTS talablari

“Son” ni o'rghanish tizimi ham son haqidagi materialni leksik va grammatik tomondan sinfdan-sinfga o'tgan sayin boyitib, murakkablashtirib borishni nazarda tutadi.

“Boshlang'ich ta'limda son uch yo'naliшда о'rғанылади:
Sonlarning talaffuzi va ma'nosи ustida ishslash.
Sonning grammatik shakllari ustida ishslash

Sonlarning imlosi ustida ishlash.”¹¹¹

Son boshlang’ich sinflarda quyidagi izchillikda o’rganiladi:

2-sinfda nechta?, qancha? So’roqlariga javob bo’lib, shaxs va narsaning sanog’ini, nechanchi? So’rog’iga javob bo’lib, shaxs va narsaning tartibini bildirishi; 3-sinfda “Son-so’z turkumi” tushunchasi kiritiladi. O’quvchilarda son predmetning miqdorini bildirishini otga bog’lanib kelishi yordamida aniqlash ko’nikmasi o’stiriladi. Bularni o’rganishda sonning leksik xususiyatlariga asoslaniladi. Sonning leksik ma’nosi uni ot bilan bog’liq holda o’rganishi taqazo etadi.

4-sinfda sanoq va tartib sonlar, tartib sonlarning harfi, rim va arab raqamlari bilan yozilishi, qo’sh undoshli sonlarning, grammatik shakllangan sonlarning (ikkov, o’ntacha, beshtadan) imlosi, sonlarning gram, kilogram, metr, litr, so’m, tiyin so’zlari bilan qo’llanishi va shu so’z bilan bitta so’roqqa javob bo’lishi o’rganiladi. O’quvchilarning sonlarni otga bog’lanishi, so’roqlar yordamida sonni o’zi bog’langan so’z bilan ko’chirish ko’nikmalari o’stiriladi.

Shunday qilib sonning leksik –semantik va grammatik xususiyati uni leksik va grammatik aspektida o’rganishni taqazo etadi. Son grammatika va imlo o’qitishdagi suhbat metodida, yarim izlanishli muammoli metodda, analistik (tahlil), sintaktik (tarkib), induktiv metodlarda o’rganiladi. Bu metodlar son yuzasidan beriladigan tushunchalarning mohiyatiga o’quvchilarning tayyorgarlik darajasiga bog’liq holda tanlanadi. Agar o’quvchi son haqida ma’lum darajada bilimga ega bo’lsa, yarim izlanishli muammoli metod yoki suhbat metodidan; Agar bola son haqida umuman tushunchaga ega bo’lmasa, induktiv va analiz metodlaridan foydalaniladi.

“Son” ustida ishlash DTS talabiga ko’ra 1-sinfdan boshlansa ham, uni o’rganish jarayoni metodik jihatdan 4 bosqichga bo’linadi. “Son” boshlang’ich ta’limda elementar nazariy tushunchalar asosida amaliy o’rganiladi. Lekin 1-bosqichni to’liq ma’noda sonni amaliy o’rganish bosqichi deb nomlaymiz. Chunki, bu bosqichda umumiy nazariyasiz son ustida ishlanadi va bu 1-sinfning savod

¹¹ Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o’qitish metodikasi. Tosheknt. “Noshir”, 2009-yil 261-bet.

o'rgatish va 1-sinfning 2- yarmiga to'g'ri keladi. Bu bosqich sonni o'rganuvchi keyingi bosqichlarga zamin tayyorlaydi.

Ma'lumki savod o'rgatish davrida o'quvchilar bilan kundalik ishlar, rasmlar, predmetlar, mavzular yuzasidan og'zaki savol -javoblar o'tkaziladi. Masalan: "Bugun nechanchi sana? Biz nechanchi asrda yashayapmiz? Bu yil nechanchi yil? Darsga nechta o'quvchi kelmadi? Bir yil necha faslga bo'linadi? Yilning birinchi fasli qaysi?" yoki mantiqiy mashqlar ishslash bilan bog'liq holda "Xonadoningizda nechta hayvon bor? Nechta yovvoyi hayvon nomini bilasiz?" kabi.

Mavzular bilan bog'liq holda "Oila" mavzusida: "Oilangizda nechta kishi yashaydi? Nechta akangiz(yo ukangiz yoki opa-singlingiz) bor? Siz oilada nechanchi farzandsiz? Nekanchi yilda tug'ilgansiZ? Hozir nechanchi sinfda o'qiyapsiz?" yoki "O tovushi va Oo harfi bilan tanishtirishda: Osmonda nechta oy bor?, nechta yulduz bor? (bolani o'ylashga majbur qiladi)? Nechta yulduzning nomini bilasiz?" kabi.

1-sinfning ikkinchi yarmida mashq ishslash paytida "Gapda nechta kim? so'rog'iga javob bo'lgan so'z bor? Nechta unli bor? Nechta undosh bor? Berilgan so'z nechta bo'g'inga bo'linadi?" kabi savollarga javob olinadi.

Bu bosqichda aralash berilgan so'zlardan gap tuzdirish matnidan gaplarning sonini, gapda so'zlar sonini, gapdagi bo'g'in yoki tovush sonini aniqlatish, ba'zan tahlilni yozma tarzda bajarish (5 ta unli bor, beshta bo'g'in bor) kabi mashq turlari qo'llaniladi. Bunda "Predmet (nomi) ga bog'lanib kelgan so'zga so'roq berib ko'rchi? U nimani bildiryapti?" kabi savollardan foydalaniladi.

2-bosqich 2-sinfga to'g'ri keladi. Bu bosqichda asosan ikki vazifa bajariladi:

1. Nechta?, Qancha? So'roqlariga javob bo'lib, shaxs va narsaning sanog'ini: nechanchi so'rog'iga javob bo'lib, shaxs va narsalar tartibini bildirgan so'zlar haqida elementlar nazariy tushunchani shakllantirish;
2. Sonlarga so'roq bera olish, ularni nimani bildirishini ayta olish, ulardan foydalanim o'z fikrini aniq ifodalash, mazmunga mos holda so'zlarni o'rinni qo'llash (o'nta o'quvchi, o'ntacha o'quvchi kabi) ko'nikmasini o'stirish, lug'atlardan foydalana olish qobiliyatini shakllantira olish.

Bu bilim va ko'nikmalar mashqlar bajarish bilan mustahkamlab boriladi. Dastlabki mashqlar tayyor materiallardan sonni aniqlashga va izohlashga qaratiladi, Keyingi mashqlar esa fikrni va izlanishni talab etadi. Mashqlar muayyan izchilikda bir tizimni tashkil etishi lozim:

1. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga nechta?, Qachon? so'roqlaridan birini bering, shu so'z nimani bildirayotganini ayting.
2. Ajratib ko'rsatilgan so'zga so'roq bering, nimani bildirishini ayting.
3. Sanoq (yoki tartib) bildirgan so'zlarni nechta?, qancha? So'roqlari yordamida aniqlang.
4. Sanoq bildirgan so'zlarni so'roqlar yordamida aniqlang.
5. Tartib bildirgan sonlarni nechanchi? So'rog'i yordamida aniqlang.
6. Nuqtalar o'rniga so'roqlarga mos son qo'yib o'qing.
7. Rasm asosida (matnni qayta hikoyalash asosida) bog'lanishli nutq tuzing. Unda sanoq, tartib bildiruvchi so'zlardan foydalaning.

Mashqda qo'llanilgan sonlarning talaffuzi , imlosi va ma'nosi ustida ishlanadi. Ko'rinish turibdiki, mashq shartlari soddadan murakkabga tamoyiliga asoslangan.

3-bosqichda (3-sinf) “Son” tushunchasini shakllantirish hamda o'quvchilar nutqini yangi sonlar bilan boyitib borish, fikrini aniq ifodalab borish uchun gap va matn mazmuniga mos sonlar tanlash, ularni o'rinni qo'llash ko'nikmasi o'stiriladi.

“Son” tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning shaxs va narsalarning sanog'ini, tartibini bildirgan so'zlar kategoriylarini o'zlashtirish sifatiga bog'liq.

O'quvchilar bilimini yetarli darajada keltirish maqsadida sonlar ishtirok etgan gaplar asosida kuzatish, aniqlash, guruhlash va umumlashtirish faoliyati ishga solinadi. Masalan: “Ma'rifat xonasiga o'quvchilar keladilar. Ikkita o'quvchi 2-sinfda o'qiydi. 4 ta o'quvchi 3-sinfda o'qiydi”.

O'quvchilar o'qituvchining topshirig'i asosida ikkita (nechta?), to'rtta (nechta?) so'zlari sanoq, ikkinchi, uchinchi (nechanchi?) so'zlari tartib bildirayotganini aniqlaydilar va ularni guruhlaydilar (sanoq bildiruvchi sonlar, tartib bildiruvchi so'zlar). SHuning ichida umulashdirish ham amalga oshiriladi. Sonning leksik ma'nolari bilan uning grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi:

narsa, shaxs bildirilgan so'zlarga bog'lanib keladi, tartib bildirgan so'z -nchi, -inchi qo'shimchasini oladi va hokazo.

"Son-so'z turkumi" sifatida unga xos bo'lган quyidagi xususiyatlar ajratiladi. A) shaxs; B) narsalarning sanog'ini, tartibini bildiradi va necha?, qancha?, nechanchi? so'roqlariga javob bo'ladi; D) gapda otga bog'lanib keladi; Ye) gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi.

Bu bosqichda og'zaki va yozma shakldagi ijodiy yozma ishlar (tabiat, yil fasllari, qushlar, hayfvonlar, o'simliklar haqida kichik hikoya tuzish) o'tkaziladi. O'qituvchilarning sonlardan o'rinni va savodli foydalanishga diqqat qaratiladi. Son bilan shakldosh so'zlar o'qituvchilarga aniqlatiladi, ma'nosi izohlatiladi: uch-uch, yuz-yuz, qirq-qirq kabি.

4-bosqichda eng asosiy e'tibor sonlarning imlosiga qaratiladi, ya'ni sonlarning har bir qismini alohida yozish (etti, yigirma yetti), chiziqchasiz va chiziqcha bilan yozish (7 o'quvchi, 7-sinf, X sessiya, 8-dekabrib, 1992 yil) qo'shimcha qo'shilgandan keyin son o'zagidagi o'zgarishlarni yozuvda to'g'ri ifodalash (ikki+ov= ikkov, yetti + ov =ettov, ikki+ala=ikkala), qo'sh undoshli sonlarni yozilishi (ikki, yetti, sakkiz, o'ttiz), sonlarning gram, kilogram, metr, litr so'zlari bilan qo'llanishi yangi bilim sifatida o'rgatiladi. Sonning 3-bosqichda o'rganilgan grammatik xususiyatlari bu bosqichda asosan mustahkamlanadi.

Metodik ishlar mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi. Gap yoki matnni o'rganishda, chiziqchalar o'rniga mos sonlarni qo'yib o'qish, gap tuzishda maqollar, topishmoq; matn tuzishda ertaklardan foydalanish tavsiya etiladi.

Masalan:

_____ o'lchab, _____ kes.

_____ yigitga _____ hunar oz.

_____ ketib, _____ qoldi.

Bir mayizni _____ bo'lib yemoq.

Pak-pakana bo'yи, _____ qavat to'ni bor va hokazo.

Sonlarni miqdor bildiruvchi so'zlar bilan almashtirish 100 ta –ancha ko'p, 2 ta – kam, oz. Ularni ifodalashdagi farqni aniqlatish: 2 raqam bilan yoziladi, kam, oz so'zlarini raqam bilan yozib bo'lmaydi.

Sonlarning imlosiga doir mashqlarda raqamlarni harflar bilan ifodalash (2, 7, 8, 9, 11-ikki...:2+ov, 7+ala, 6+ov; 10 gram, 100 so'm, 10 so'm...), harflar bilan yozilgan sonlarni raqamlar bilan (arab, rim) ifodalash (etti o'quvchi, beshinchi sinf, ikki ming birinchi yil, o'n to'rtinchi yanvarъ, 5-sinf, V sinf, 7 o'quvchi...) kabi topshiriqlardan foydalaniлади. Mashqlar asta –sekin murakkablashtirib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda sonni o'rgatish ot bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Sonning ot bilan bog'lanishi asosida o'quvchilar ko'p ma'lumotlarni ham egallaydi.

“Sonni o'rganish yakunida o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari lozim:

Sonning sanoq va tartib ma'nolarini bildirishini.

Son nechta?, qancha?, nechanchi? So'roqlariga javob bo'lishini

Son otga bog'lanib kelishini.

Son gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida kelishini.

Sonlarni imlo jihatdan to'g'ri yozilishni.

Og'zaki va yozma nutqda sonlardan to'g'ri va o'rini foydalana olishni.

Sonlarga shakldosh so'zlar topishni.

Matndagi sonlar boshqa miqdor bildiruvchi so'zlar bilan almashtirishni.”¹¹²

Har bir grammatic mavzu bir nechta darsda o'rganiladi. SHuning o'zidayoq o'quvchilardan har bir darsda o'rganiladigan grammatic material tabiatidan kelib chiqib metod, usul va ish turlarini belgilab olishni muayyan darslikdan kelib chiqib, darsning texnologik xaritasini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Yangi grammatic materialni o'rganish darsning qurilishi 2-sinfda “Sanoq va tartib bildirgan so'zlar” mavzusi misolida quyidagicha bo'lishi mumkin:

¹² ¹Uzviyylashtirilgan Davlat ta'lim standarti. Toshkent.2010-yil. 30-bet

Yangi grammatik materialni o'zlashtirishni ta'minlash, o'quvchilarning oldingi bilimlarini aniqlash. Masalan: sanoq va tartib bildirgan sonlarni o'rganish uchun “Biz qaysi so'zlarga so'roq berishni o'rgandik?” (SHaxs va narsani, belgi bildirgan so'zlarga), “Kim?, nima? So'roqlari qaysi so'zlarga beriladi”, “Qanday?, Qanaqa? So'roqlarichi?” kabi savollardan foydalanish mumkin. Sinf xontaxtasiga “Tok ko'chati o'tqazilgandan keyin uchinchi yili hosilga kiradi” gapi yoziladi. O'quvchilar yuqoridagi savollar asosida narsa bildiruvchi so'zlarni belgilaydilar:

Nima? –tok

Nima? –ko'chat

Nima? –hosil

Nima? –yil.

Bu savol-javob yangi materialni ongli o'zlashtirishga o'quvchini tayyorlaydi.

O'quvchilarga bajariladigan ishlarning maqsadi e'lon qilinadi:

Biz siz bilan gapdagi so'zlarga so'roq berishni va shu so'zlarning nimani bildirishini bilib oldik. Biz tahlil qilgan gaplarda ba'zi so'zlar qolib ketdi. Bu darsda biz shu so'zlarga so'roq berib, nimani bildirishini aniqlaymiz. (“Uchinchi” so'zning tagiga chizib ko'rsatiladi, Qolgan so'zlarni ham keyin o'rganishlari aytiladi).

Yangi grammatik materialni tushuntirish. Yangi material tanlangan gaplarni grammatik tahlil qilish va xulosa chiqarish yo'li bilan tushuntiriladi. Tushuntirish izchil olib boriladigan ikkita ishdan iborat: **a) matn (ichki) tahlili:** agar mavzu keng tushuntirishni taqazo etmasa, birinchi misolni tahlil qilish bilanoq xulosa aytib qo'ya qolinadi. Sanoq va tartib bildirgan so'zlar xuddi shunga to'g'ri keladi. Keng va bir qancha muhim belgilarga ega bo'lgan grammatik material tushuntirilsa, unda bir nechta misol tahlil qilingach xulosa chiqariladi (so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar o'zakdosh so'zlar).

Sinf xontaxtasidagi misol yoniga yana gaplar yoziladi: “Ekilgan tokdan yuz kilogramgacha uzum hosili olinadi”.

O'quvchi: -birinchi gapda yil so'zi orqali uchinchi so'zga so'roq bering (nechanchi yili?). Uchinchi so'zi qaysi so'roqqa javob bo'lyapti (nechanchi?). Yilning nimasini bildiryapti? Belgisini bildiryaptimi? (yo'q).

Bolalar javob berolmaydi.

O'qituvchi sinf xattaxtasiga quyidagi birikmalarini yozadi:

Birinchi yili

Uchinchi yili

Ikkinci yili

-tartib bo'yicha qaysi oldin turadi? (1) birinchi yili; 2) ikkinchi yili; 3) uchinchi yili) Ko'rdingizmi, 1-, 2-, 3-yilning, narsaning (predmetning) tartibini bildiryapti.

- Siz nechanchi sinfda o'qiysiz? (2-sinfda)

-Siz qaysi sinfdan keyin turasiz. (1-sinfdan)

Bu jarayonda stol ustiga predmetlarni qo'yib, ularning tartibini aniqlatish mumkin.

Bu so'zlar narsalarning tartibini bildirib, nechanchi? So'rog'iga javob bo'ladi, narsa, shaxs bildirgan so'zlarga bog'lanib keladi:

Strelka bilan ko'rsatiladi:

→ →

Uchinchi yili ikkinchi yili

Ikkinci gap tahlili orqali sanoq bildirayotgan so'zning so'roqlari u bog'lanib kelayotgan so'z aniqlanadi:

Qancha?

→

Yuz kilogram uzum

Yuz so'zi sanoq bildirayapti, kilogramm so'zi bilan birga qancha? So'rog'iga javob bo'lyapti, *uzum* so'ziga ya'ni narsa bildirgan so'zga bog'lanayapti.

b) xulosani shakllantirish: xulosa ba'zan o'quvchilar tomonidan ba'zan o'qituvchi tomonidan shakllantiriladi. Uzoq muddatli tahlil va tushuntirishdan so'ng xulosani ta'rifini ko'pincha o'quvchilar shakllantiradi, yasaydi. Bu mavzuda o'qituvchi quyidagicha xulosa yasaydi: **nechta?, qancha?** So'rog'iga javob

bo'lgan so'zlar sanoqni, **nechanchi?** so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar tartibni bildiradi.

1.3. 2-sinf ona tili darslarida sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarga oid mashqlar va ularning tahlili.

Sanoq son

“Sanoq sonlar narsaning miqdorini sanab, donalab yoki taqsimlab ko'rsatishga xizmat qiladi”¹¹³

Sanoq sonlar predmetning miqdor belgisini bildirgani uchun otga sifatlovchi bo'ladi va shakliy jihatdan o'zgarmaydi (otga bitishuv yo'li bilan bog'lanadi): Oftob g'arbgaga yonboshlaganda, ikki yo'lovchi pastdan chiqib tepalikka yo'l oldi.

Bir sanoq soni ayrim xususiyatlari bilan boshqa sonlardan ajralib turadi. Ikki, besh, o'n, sakkiz kabi sonlar ot bilan bog'lanib, uning miqdorini aniqlaydi. Bir so'zida esa aniq miqdor bildirish xususiyati ancha kuchsizlashgan. Chunki predmetning birligi, tanholigi, yakka ekanligi otning birlik shakli orqali ham ifodalanadi: Qassob dumbasi selkillagan qo'yni... tomorqaga yetaklab o'tganidan so'ng Nasimjonning ko'ngli tinchidi. Bunda bir so'zni qo'llanmasa ham, qassob, dumba, qo'y, tomorqa kabilarning bitta ekanligi angalshilib turadi. Bir so'zida miqdor ma'nosining kuchsizlashganligi uning asosiy ma'nosidan tashqari juda ko'p boshqa ma'nolar ifodalashida ham ko'rindi. Bu ma'nolar esa faqat kontekstda aniqlanadi: Magazinning bir derazasi choyxona tomoniga, bir derazasi maktab qurilishi tomonga ochilardi.

Bir so'zi quyidagi ma'nolarda ishlatiladi:

Predmetni aniqlab, uning sonini ko'satadi. Bu vaqtida u miqdor bildiruvchi hisob so'zlar (numerativlar) bilan ham ishlatiladi: Bir so'm, bir gektar, bir qadam, bir juft, bir tup (gul), bir dona (kitob), bir qop (un), bir kosa (ovqat) kabi.

Predmetni aniqlab, “noaniq”lik ma'nosini bildiradi: Vodiylarni yayov kezganda, bir ajib xis bor edi menda.

¹³ ¹Rahmatullayev Sh. Tursunov U. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent “O'qituvchi”: 1992-yil 291-bet

Har vaqt, kun, fasl, qadar, yil, mahal kabi so'zlar bilan birga kelib, ta'kidlash, ajartib ko'rsatish, guman kabi ma'nolarni bildiradi: U bir kuni tushki dam olish vaqtida... daryodan suv keltirgani bordi (A.Q)

Chegaralov ma'nosini bildiradi: Hammamiz imtihonlardan yaxshi o'tdik, bir Ahmadning mazasi bo'lindi.

Fe'lga bog'lanib, uning ma'nosini kuchaytiradi: Biram sog'indim, bir tepdi. Omadimiz kelgan ekanmi yo qurt tutishni sog'inib qolgan ekanmizmi – bir bo'lib berdi, qani endi terib tamom qilolsak?

Takroriy shaklda fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini, uning qay tarzda bajarilganligini bildiradi: Umid mamnun holda zinapoyalardan bitta-bitta bosib pastga tushdi.

Takrorlanib, ayiruv bog'lovchisi vazifasini bajaradi, harakat voqeasi – hodisalarining galma-gal bo'lganligini bildiradi: - voy tavba, bir undoq deysiz, bir mundoq deysiz!

Sanoq sonlar narsaning miqdorini donalab sanash yo'li bilan ham ko'rsatiladi. Bu vaqtida sanoq sonlarga –ga affiksi qo'shilish keladi: ikkita bola, oltita daftar, beshta uy kabi. Mirzaev shoshib qolib bir kunning o'zida Latofatxonga ikkita xat yozdi.

Egalik affiksi (ko'rinch uchinchi shaxs) olib kelgan sanoq sonlar otlashadi. Bu vaqtida ular kelishik affiksini ham qabul qilishi mumkin. Lekin ko'plik affiksini olmaydi: Suruvdan yetmish sakkiz qo'y oshiq chiqdi. Bulardan o'n sakkiztasi Ortiqniki, o'n uchtasi Turdi bilan Eshmurod akaning o'ziniki, ikkitasi qaysi bir rayon xizmatchisiniki edi. (P.Qodirov).

Narsaning miqdorini donalab sanashda sanoq son ma'no jihatdan bo'lak, dona, nafar, bosh, tup kabi predmetlarning miqdorini bildiruvchi hisob so'zlar – numerativlar bilan yonma-yon holda qo'llanishi mumkin: (O.) Ikkinci sinfda o'ttiiz beshta (o'ttiz besh nafar) o'quvchi ta'lim oladi. Sanoq sonlarga –gina affiksi qo'shilsa, predmet miqdorini chegaralab, ayirib ko'rsatish maynosi anglashiladi: ...doimiy tokni o'roqqa olib borish arzon tushadi-unga ikkitagina sim, oddiy ustunlar kerak. Sanoq sonlar narsalarining taqsimini, ularning miqdor jihatidan teng

bo'ladiganligini ham bildiradi. Bu vaqtda sanoq sonlar –dan affiksini olib, chiqish kelishigi tqsim ma'nosini ifodalaydi: ikkitadan, sakkiztadan, yigirma beshtadan kabi:... Yana har gektaridan 8 tadan (8 tsentnerdan) paxta berishga so'z berdik.

Ba'zan chiqish kelishigi affiksi to'g'ridan –to'g'ri sanoq sonning o'ziga qo'shilib kelishi ham mumkin: Biz sidqidildan ishlab har yuz sovliqning yigirmadan qo'zisini semirtirib berganmiz ham oson ish emas (P.Qod.)

Bundan tashqari taqsim ma'nosi, narsalarning teng bo'lingan miqdori sonning boshqa turlarini takrorlash yo'li bilan ham ifodalanadi. Jumladan, jamlovchi dona sonlar takrorlanganda, taqsim ma'nosi anglashiladi: Hammalari ikkov-ikkov zambil ko'tarib, g'isht tashishga kirishdilar.

Tartib son

Tartib son bir turdag'i narsalarning daraja-miqdor jihatidan tartibini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.

Tartib son narsaning ketma-ketlik jihatidan tartibini anglatadi. Jumladan, beshinchi uy deganda "To'rt uydan keyin turgan uy" ma'nosi anglashiladi yoki qirqinchi yil misolida uy songacha "O'ttiz to'qqiz yil" bor ekanligi ma'nosi anglashiladi.

Tartib son sanoq sonlarga –nchi (inchi) affiksini qo'shish bilan yasaladi. Sonlar harf bilan yozilgandagina bu affiks qo'shib yoziladi: ikkinchi, to'rtinchi uy, beshinchi, yigirma uchinchi kabi. Boshqa hollarda esa bu affiks tartib sonlar bilan qo'llanmaydi.

Tartib son bir nechta sondan tuzilganda, affiks eng keyingi so'zga qo'shiladi, lekin qo'shma songa yaxlitligicha taalluqli bo'ladi: ikki yuz sakson beshinchi o'qchi dviziya "Bir ming to'qqiz yuz qirqinchi yil olmalari" kabi.

Tartib son arab raqamlari bilan yozilganda -(i)n-ichi affiksi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi. (yil, oy, sanalar bundan mustasno): 25-maktab, 7-sinf, 14-uy, 252-sahifa kabi; Rim raqamlaridan shuningdek, yil, oy kunlarni ifodalaovchi arab raqamlaridan keyin defis qo'yilmaydi: VII sinf, XX asr, III bob, 8 mart, 1 may, 2018 yil kabi.

Tartib sonlar o'zlari bog'langan so'zning xususiyatiga qarab, ikki xil ma'no anglatadi:

A) asosan narsalarning miqdori tartibini bildiradi: Umida prezideumning ikkinchi qatoriga, har kungi joyiga borib o'tirdi (A.Muh).

B) ba'zan mazmunan sifatga yaqin turgan belgi ma'nosini bildiradi. Bunda narsaning tartibi emas, aksincha, uning xususiyati, belgisi e'tiborga olinadi: Birinchi nav paxta, ikkinchi nav choy.

Tartib son gapda asosan sifatlovchi vazifasida keladi. Turg'unoy birinchi tovushni eshitganda seskandi. Ikkinci, uchinchi, to'rtinchi tovushlar esa uni vahimaga soldi.

Tartib son ba'zan otlashganda, ot shakllarini qabul qilib, gapda ega to'ldiruvchi, kesim va qaratuvchi vazifasida keladi: Unsin bir do'ppini akasining boshiga kiydirib, ikkinchisini O'rozga tutdi.

Chiqish kelishigi tartib sonlar esa gapda kirish so'z vazifasida keladi, bunda birinchidan xulosa yaxshi, ikkinchidan qimmatli suv jarga oqib ketmaydi, uchinchidan kishi kuchi ham ortiqcha sarf bo'lmaydi. (A.Qodiriy).

Sonlar odatda otga bog'lanib, sifatlovchi vazifasida keladi. Sonlar bog'lanib kelgan ot tushib qolganda, otlashadi. Shaxs va predmetni ko'rsatadi. Shu otning grammatik shakllarida – ko'rlik, egalik va kelishik formalarida keladi, gapda ular bajargan sintaktik vazifalarni bajaradi. O'n to'qqizdan oshmay tur, go'zal. Yigit sendan shuni so'raydi (H.Olimjon). Birining tilida elining kalomi, birining og'zida yurtning kamoli (U).

Son mavhum miqdor tushunchasini nomi bo'lib kelsa, ot kabi egalik, kelishik affikslarini oladi, ot bajaradigan vazifalarda keladi. Beshni beshga ko'paytirsak, yigirma besh bo'ladi, yigirma beshga qoldiqsiz bo'linadi. Sakkizga oltini qo'shsak o'n to'rt bo'ladi kabi.

Sonning miqdor tushunchasini anglatib kelishi ayniqsa qo'shish, ayirish, ko'paytirish singari matematik tushunchalarni ifodalashda ko'p uchraydi: Nol butun yuzdan beshning o'nga ko'paytmasi nol butun son o'ndan beshga teng bo'ladi ($0,05 \times 10 = 0.5$) kabi.

Sanoq va tartib sonlar haqida ma'lum nazariy tushunchalarni olgandan so'ng, biz mavzuimizdan kelib chiqib 1-2-3-4-sinf ona tili darsliklarini mavzu yuzasidan

ko'rib chiqdik, solishtirdik, mashqlarni tahlil qildik. Bitiruv malakaviy ishi mizni tajriba – sinovdan o'tkazishda 2-sinf ona tili darsligi va undagi mashqlarni tahlil qildik.

“2-sinf sanoq va tartibni bildirgan so'zlarda quyidagi mashqlar bor”¹¹⁴

Umumiy o'rta ta'im muassalarida ona tili o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning davlat oldiga qo'yilgan vazifasiga moslangan. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasiga yo'naltirilgan. Xalq ta'limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi 190-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan boshlang'ich ta'limning ona tili fani o'quv dasturi o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish Davlat ta'lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzildi. Ushbu o'quv dasturida 1-4-sinflarda tayanch hamda fanga oid (nutqiy va lingvistik) kompetensiyalarning elementlari shakllantirish ko'zda tutilgan. Men o'zimga berilgan mavzuni shu asosida yoritaman.

Mavzu: 2-sinflarda narsa va shaxsning sanog'ini va tartibini bildirgan so'zlarni o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.

2-sinfda ona tili darslarida ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek darslarda o'quvchilarning faolligini oshirish va fikrlash maqsadida multimediali ilovalar tayyorlanadi.

Ularda o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga til ma'nolarini to'g'ri anglashiga, og'zaki a yozma nutqlarining savodli bo'lismiga, vatanimizning mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti, o'tmish miliy urf-odatlari, borliq va jamiyat haqidagi mavjud bilimlarini yanada boyitish maqsad qilib olinadi.

Bu maqsadni amalga oshirishda turli zamonaviy texnologiya metodlardan foydalanish maqsadga loyiqdir.

Buni 236-238-mashqlarda ko'rishimiz mumkin.

¹⁴ ¹Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. T.: “Cho'lpox” nashriyoti. 2016.

Dars o'tishdan oldin o'z oldimga ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarga hamda tayanch va fanga oid kompetensiyalarga tayanaman.

Tk1-kommunikativ kompetensiya;

Tk2-axborotlar bilan ishslash kompetensiya;

Tk3-o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiya;

Tk4-ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya;

Tk5-milliy va umummadaniy kompetensiya;

Tk6-matematik savodxonlik kompetensiya.

Bizga ma'lumki, bu kompetensiyaning beshtasi ona tili faniga bir xil mazmunni anglatganligi sababli ona tili darslarida har dars jarayonida o'tishga harakat qilaman. Dars o'tishdan oldin o'tilgan mavzu bayoni savol-javob asosida mustahkamlab, uyga berilgan vazifani tekshiriladi. 235-mashq tekshiriladi. She'mni matnni yoddan so'raladi.

Belgini bildirgan so'zlar savollar yordamida aniqlanadi, tekshiriadi.

Laylagim

Uzun tumshuq laylagim
Kelar birga o'ynagim,
Loy, balchiqni kechmagan,
Kir bo'lar oq ko'ylagim.

Qushlar haqida nima bilasiz? Ta'limiy o'yini o'tkaziladi. Buning uchun men o'quvchilarga tabiatda uchraydigan qushlarga xos rasmlarni ko'rsataman. Husnixat daqiqasi o'tkazaman: Oynar beshta qiz bola

Go'yo ochilgan lola
Do'stlar keldi beshta
Ayting ular bo'ldi nechta?

Bu she'rda ham sanoq sonlarni topishni o'quvchilardan so'raladi va yangi mavzu bayonini tushuntiraman.

Yangi mavzu bayoni: 236-238-mashqlar. Men yangi mavzuni tushuntirishda quyidagi usullardan foydalanaman. Savollarni doskaning chap tomoniga yozib qo'yaman. O'quvchilar savoldagi so'roq yoniga bir so'z bilan yozadilar.

- Siz (nechanchi?) _____ sinfda o'qiysiz?
- Sinfingizda (nechta?) _____ o'quvchi bor?
- Siz (necha?) _____ yoshdasiz?

Har bir chiziqcha ustiga so'zlarni yopishtiradilar. Bu misollardan qoidani keltirib chiqaraman. Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar nechta? Qancha? So'roqlariga javob bo'ladi degan qoida kelib chiqadi. Narsa va shaxsning tartibini bildirgan so'zlar nechanchi so'rog'iga javob bo'ladi.

256-mashq.

Bir chuqurda ming chuqur,
Chuqurni igna cho'qir. (angishvona)

Qirq ko'y lagi bor,
Bir tugmasi yo'q (karam)

Savol va javob berish usulidan foydalanaman.

Ta'limiy o'yinlardan, dam olish daqiqalaridan, test tarqatmali materiallaridan, sinchkov o'quvchi kabi metodlardan foydalanaman. Sinchkov o'quvchi: ta'limiy o'yin. Bu o'yinda o'quvchiar ziyraklikka, sinchkovlikka, e'tiborli bo'ladilar.

- 1.Sinfimizda nechta o'quvchi bor?
- 2.Ularning nechtasi qiz bola?
- 3.Nechtasi o'g'il bola?
- 4.Sinfxonamizda nechta deraza bor?
- 5.Derazasida nechta gul bor?

Kabi savollarni beraman.

Darslik bilan ishslashda esa mashqlarni shartini o'zim o'qib, keyin esa, o'quvchilar bilan birlilikda tahlil qilaman.

Tarqatmali materiallar bilan ishslash

№1

Bittagina onasi

O'n ikkidir bolasi

Har bolaning boshida

O'ttiz anima xolasi (yil,oy,kun)

№2

Nuqtalar o'rniga sanoqni bildiradigan so'zlar toping.

... karra ikki to'rt.

№3

Men ham nihol qadadim

Parvarishlab qarab,

Gul bog'imni bezadim

Bu birinchi qadamim

O'yla, izla, top ta'limiy o'yin:

Hisobchi:

Kelishardi

Izlab buloq

Bir echki-yu

Ikki qulinq

Suv bo'yida ayni shu chog'

Yurar edi ikki qulinq

Hamdam dedi:

Qani o'rtoq

Bosh qotirib

Ko'rchi bundoq

Bulardan bor

Nechta qulinq

Nechta tuyeq (qulinq 6 ta, oyoq 12 ta, tuyeq 24 ta)

Mustahkamlash jarayonida esa multimedia ilovalaridan foydalanaman.

So'ngra uyga vazifa beraman. Uyga vazifa 257-mashq.

O'quvchi lanmay javob berdi.

Kuch likdadir.

Vatan haqida liklar o'qidik.

Doskaga ko'rgazmali qurollarni ilib, vazifani tushuntiraman. O'quvchiar savollarni o'qib, so'z ma'nosini chiqarib yozadilar.

239-mashq. Sonlarni qo'shib o'qish orqali so'z ma'nosini chiqaring.

O'quvchi **2** lanmay javob berdi.

Kuch **1** likdadir.

Vatan haqida **4** liklar o'qidik.

Ko'chiring. Shunga o'xshash boshqotirmalar tuzishga harakat qilib ko'ring.

240-mashq. Gaplarni o'qing. Nuqtalar o'rniga mazmunga mos so'zlarni qo'yib yozing. Bir yilda (nechta?) ... fasl bor. Har faslda (necha?)... oy bor. Bir oyda (qancha?)... hafta bor. Har haftada (qancha?)... kun bor. Bir kecha-kunduz (necha?) ... soatdan iborat. Bir soat (necha?)... daqiqa.

Hozir (nechanchi?)... oy. Bugun oyning (nechanchi?)... kuni.

Narsalarning sanog'i va tartibini bildirgan so'zlarni tegishlicha belgilang.

241-mashq. Maqollarni o'qing. Mazmunini tushuntirishga tayyorlanin. Egri ish ellik yildan keyin ham bilinadi.

Ilmsiz bir yashaydi, ilmlı ming yashaydi.

Bir mayizni qirq kishi bo'lib yebdi.

Ko'chiring. Sanoqni bildirgan so'zlarni belgilang.

242-mashq. She'rlarni o'qing. Sanoqni bildirgan so'zlarni aniqlang.

O'nta qo'l egolmas boshni,
CHirillavtar yuz kilo toshni,
Qo'lini topsa edi, To'lanboy
Ko'tarardi o'zi quyoshni. (Yong'in Mirzo).

Qirq og'ayni botirlar,

Qaydan kelayotirlar?
Balki qirq kunlik yo'ldan
Eldek yelayotirlar. (Boborahim Omonov).

Sanoqni bildirgan so'zlarga so'roq bering va o'zi bog'langan so'z bilan birga yozing.

243-mashq. O'qing.

O'zbekiston qizil kitobi

O'zbekiston qizil kitobini yangi nashri chop etildi. Qizil kitobga 184 turdag'i hayvonlar kiritildi. Botanika qismiga 324 turdag'i o'simliklar yozildi. Ular yo'qolib ketish xavfi ostida qolganlar. Masalan, Toshkent viloyatidagi bir qishloqda 150 yillik nok daraxti o'sar ekan. Undan 500 kilogram atrofida hosil yig'ib olinadi. Nokning bu noyob turi ham ushbu kitobga kiritilgan.

O'simlik va hayvonlarning asrash hammamizning burchimizdir. Savollarga javob bering.

Qizil kitob nima ekanligini bilasizmi?

Siz o'simlik va hayvonlarga qanday munosabatdasiz? Berilgan raqamlarni so'z bilan yozing.

244-mashq. O'qing.

Yong'oq qoqvoldim,
Mag'zini chaqvoldim.
Dadamga - o'ttizta
Ayamga - to'qqizta,
bobomga - yetmishta
o'zimga to'rt-beshta. (Anvar Obidjon).

Ko'chiring. Sanoqni bildirgan so'zlarni so'roq berib aniqlang. Tagiga chizing.

Ushbu mashqlarni bajartirish jarayonida har bir o`qituvchi o`zining pedagogik mahoratidan kelib chiqib, o`quvchilarni guruhlarga bo`lib, rag`batlantirib, musobaqa shaklida olib borilsa, o`zining ijobiy samarasini beradi. Unda sanoq va tartib sonlarning savollaridan kelib chiqib, mustaqil ishlar , ya`ni gaplar, hikoyalar tuzib kelish va boshqa shu kabi topshiiqlarni berish ham maqsadga muvofiqdir.

II -bob. O'quvchilarga 2-sinf ona tili darslarida sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rgatish uslublari.

2.1. Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rgatishga oid mashqlarni bajarishda interfaol usullardan foydalanish.

“Ta’lim jarayonida bugun o’qituvchilar dars davomida interfaol usullardan keng foydalanishmoqda. Bu usullarning qulayligi bir dars davomida barcha o’quvchilarni darsga qiziqtira olish, ularga kerakli ma’lumot va bilimlarni bera bilish va barchani baholash imkoniyati mavjud.”¹¹⁵

Ma’lumki, ona tili va o’qish darslarida yangi mavzu bo’yicha nazariy tushunchalar shakllantirib, muayyan ko’nikmalar hosil qilinadi. So’ng o’quvchilarning og’zaki va yozma nutqini shakllantirish bosqichiga o’tiadi.

Ana shunday usullar va ularning qulayliklari xususida ishimizda to’xtalib o’tmoqchimiz.


“Diagramma Vena”

Bu usuldan ham boshlang’ich sinf o’qish darslarida foydalanish mumkin. Bu metodda ikkita oval figuralarning kesishmasidan foydalaniladi. Doirachalar uchta bo’lib, bunda birinchi va uchinchi doirachalar ichiga berilgan topshiriqning farqli jihatlari yoritilsa, o’rtadagi doirachaga ularning umumiyligi o’xshash tomonlari yoziladi. Bu usulni asosan ikki toifadagi narsalarni farqlash uchun yoki xususiyatlarni ajratishni o’rganib oladilar.

Bu usul yordamida o’quvchilar mavzuga oid alohida sifatlarni, xususiyatlarni ajratishni o’rganib oladilar.

Masalan, ona tili darsligida son – so’z turkumining ma’no turlari haqida tushunchaga ega bo’ladilar.

Bu darsda biz “Diagramma Vena” usulini quyidagi tartibda qo’llash mumin:



- 1.Birinchi yarim doira ichiga sanoq sonlar haqida.
- 2.Ikkinchi yarim doira ichiga tartib sonlar haqida.
- 3.Ularning o'xshash tomonlarini 3-doira ichiga yozing, deb topshiriq berish mumkin.

Bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga vaqt beriladi va vaqt tugashi bilan har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, yozganlari haqida boshqa guruhdagi o'quvchilarni tanishtiradi. O'quvchilar qarsak chalib rag'batlantiriladi.

Bu metodni o'quvchilarning bilim saviyasiga qarab ona tili darslarida foydalanish mumkin. Bu usul orqali tanqidiy, tahliliy va ijodiy fikrlashga o'rghanadi. O'qituvchi fikrlashga shay turgan o'quvchilar oldiga muammoli savol qo'yib, uni aniqlashtirish, yechimini topishga undaydi. Bu esa albatta, o'qituvchining o'z ustida muntazam ishlashga, ijodiy qobiliyatiga va ko'proq izlanishiga bog'liq.

Ushbu bobning boshida ta'kidlab o'tganimizdek, interfaol metodi asosan o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularning darsdagi faolligini oshirishning ta'minlaydi. Bu esa albatta, o'qituvchining o'z ustida ishlashiga, ijodiy qobiliyatiga a ko'proq izlanishiga bog'liq.

O'qituvchining fikrlashga shay turgan o'quvchilarni oldiga muammoli savol qo'yib, uni aniqlashtirish, yechimini topishga undaydi.

Qarorlar shajarasi usuli asosan o'tilgan mavzularni takrorlash hamda umumlashtirish maqsadida foydalanidi. Unda bolalar kichik guruhlarga bo'linadi, har bir guruh birorta mavzudan (miso uchun, "Sonlarni yozilishi") tushgan masala bo'yicha belgilangan vaqt davomida (3-5 daq.) topshiriq bajaradi. So'ng 1-guruh 2-guruhga, 2-guruh 3-guruhga, 3-guruh 4-guruhga o'z topshiriqlarini davom qilish uchun beradi. Bunday harakat har bir guruhga o'z topshirig'i qaytguncha

bajariladi. Keyin guruqlar o’z masalasi bo'yicha berilgan navbat bilan taqdim etadi va baholanadi.

“**Aql charxi**” usulida o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanadi. Bu o’yinda ikki yoki uchta o’quvchidan iborat guruhchalar ishtirok etadi. Birinchi o’quvchi mavzuga oid terminlardan birini aytadi. Ikkinchi o’quvchi birinchi o’quvchi aytgan termini qaytaradi va bitta termin qo’shib aytadi. Uchinchi o’quvchi avvalgi ikkita termini qaytaradi va bitta termin qo’shib aytadi. Yana birinchi o’quvchiga navbat keladi, u ham avvalgi uchta termini qaytaradi va o’zi bitta termin qo’shib aytadi. Qaysi o’quvchi adashib ketsa yoki aytilgan terminlarni qaytarib aytsa, o’yindan chiqadi. Shu tariqa o’quvchilar guruhi davom etadi. O’yinni tashkil etishda maqsad aniq bo’lishi va o’quvchilarning qaysi bilim, ko’nikma va malakalarni egallashlariga e’tibor qaratilishi muhim. Masalan: sonso’z turkumiga tegishli so’zlarni aytинг:

1-o’quvchi: ikki

2-o’quvchi: ikki-uch

3-o’quvchi: ikki-uch, o’quvchi

1-o’quvchi: ikki-uch, o’quvchi, birlashib

2-o’quvchi: ikki-uch, o’quvchi, birlashib, to’rtta

3-o’quvchi: ikki-uch, o’quvchi, birlashib, to’rtta, daraxt

1-o’quvchi: ikki-uch o’quvchi birlashib to’rtta daraxt ekishdi.

O’quvchi so’zlarni ketma-ket aytishda xatoga yo’l qo’ysa, o’yindan chiqadi. Boshlang’ich sinfda ta’lim jarayonida o’quvchilarning o’qish motivini rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Chunki motiv o’quvchilarni ta’lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishiga, bilimlarni puxta egallasjga undaydi. Interfaol metodlar o’qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi.

“Baxtli tasodif” usuli.

Bu usul orqali mavzu yuzasidan uyga berilgan topshiriqlarni nechog’li o’rganilganligini aniqlash oson bo’ladi. Buning uchun qog’ozdan kartochkalar tayyorланади va har bir kartochkaga 2-3 tadan savollar qo’yiladi. Faqat bitta

kartochkaga “Yutuq “5” baho” deb yoziladi. Shu yutuqli kartochka kimga nasib qilsa, “Baxtli tasodif” sohibi hisoblanadi va bugungi darsda eng yuqori ballni oladi. Savolli kartochkalar olgan o’quvchilar ham savollarga bergen javoblari asosida baholanadilar. Bunday usul o’quvchida bilimga ishtiyoy uyg’otadi. O’quvchi darslarga puxta hozirlik ko’rishga intiladi.

“Egri bugri (zig-zag) usuli darslik yo’q yoki uni soni oz bo’lsa, “oson” yangi mavzuni o’rganish, takrorlash, umumlashtirish maqsadida foydalaniladi. Unda bolalar kichik guruhlarga bo’linadi. Har bir guruh birorta mavzu (misol uchun, “Uy va yovvoyi hayvonlari”) bo’yicha bitta masalani belgilangan vaqt (5-8 daq.) davomida bu masalani o’rganadi yoki takrorlaydi, shunday qilib o’zlashtiradi. So’ng 1-guruh vakillari boshqa guruhlarga borib, ularga o’z masalasini tushuntirib beradi. Bundan keyin o’qituvchi o’sha guruhlarga bu masala bo’yicha savollar beradi va javoblarni baholaydi. Shu bilan birga tushuntirigan bolalarga ham baho qo’yiladi. Bu amal oxirgi guruh o’z masalani tushuntirguncha takrorlanadi”¹¹⁶

“Bumerang” texnologiyasi

Mazkur texnologiya bir mashg’ulot davomida o’qib materialini chuqur va yaxlit holda o’rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egalashga yo’naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga, (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo’lgan mavzularni o’rganishga yaroqli bo’lib, o’z ichiga og’zaki va yozma shakllarini qamrab oldi hamda bir mashg’ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan o’quvchi yoki o’qituvchi rolida bo’lishi, kerakli ballni to’plashiga imkon beradi.

“Bumerang” texnologiyasi tanqidiy fikrlash mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi: xotirani, g’oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og’zaki shakllarda bayon qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’lim bilan bir qatorda mazku metod tarbiyaviy xarakterdagи qator vazifalarni amalgalash imkonini beradi:

¹¹⁶ ¹G’afforova T. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent. 2011-yil. 30-bet.

- jamoa bilan ishslash mahorati;
- muomalalik;
- xushfe'lllik;
- ko'nikuvchanlik;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- faollik;
- rahbarlik sifatlarini shakllantirish;
- ishga ijodiy yondashish;
- o'z faoliyatining samarali bo'lishiga qiziqish;
- o'zini holis baholash.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Ochiq savollar- bu savollar muomala, o'zlashtirishni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil jazo berish mumkin emas. Yopiq savollar-bu oldindan “ha” yoki “yo’q” tipidagi to’g’ri, ochiq javoblarni berishni ko’zda tutadi.

Ko’ndalang so’roq bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo’lib, o’ziga xos axborotlarni izlash hamda dalilarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir.

Ko’ndalang so’roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtida faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

Ona tili darslarida dialogik nutqni takomillashtirish uchun amaldagi darsliklarda ko’zda tutilgan darslarni olib borish bilan bir qatorda muloqot usulida o’tkaziladigan quyidagi holatlarni ham tavsiya qilish mumkin:

Berilgan dialogning mazmunini tahlil qilish.

Berilgan dialogni takomillashirish.

Turli vaziyatlar tasvirlangan rasmlar asosida dialog tuzish.

Nutq vaziyatining berilgan ta’rifi asosida dialog tuzish.

O’zgalar nutqini kuzatish va tahlil qilish.

Rolli o’yinlar o’tkazish.

Munozarali mavzular bo'yicha suhbat uyushtirish.

Og'zaki nutq faoliyatining yana bir shakli monologik nutq malakalarini shakllantirishda ham bir qator o'ziga xos muammolarni hal qilishga to'g'ri keladi. Bu o'rinda shuni aytib o'tish lozimki, tabiiy muloqot sharoitida, aksariyat hollarda dialog hamda monolog bir-biriga chambarchas bog'langan bo'ladi. Binobarin, nutqning bu ikki shakli ko'p umumiylar ko'nikma va malakalar yordamida amalga oshiriladi. Shu bilan bir qatorda og'zaki nutqning har bir shaklidagi nutqni tuzishda quyidagi malakalar yuzaga chiqishi mumkin:

Nutq jarayonida ifoda qilinayotgan hamma fikrlarni suhbat mavzusiga mos keltirish.

Barcha fikrlarni aynan shu aziyatda ko'zda tutilgan muloqot maqsadini amalga oshirishga qarata olish.

Nutqning yo'naliishini to'g'ri belgilay olish.

Nutq jarayonida yuzaga kelayotgan fikrlarning o'zaro bog'lanishini ta'minlay olish.

Nutqning mazmunini muloqot vaziyatiga qarab o'zgatira olish.

O'quvchilarining monologik nutqni muloqot usulida shakllantirish va takomillashtirish uchun an'anaviy tarzda olib boriladigan darslarga bir qator o'zgartirishlar kiritish va yangi pedagogik texnologiya asosida quyidagi tarzda darslatni tashkil etib olib borish kerak:

Berilgan matnning mazmuniga mos keladigan boshlovchi gapni tanlash.

Berilgan matndagi yakunlovchi jumlanı o'zgatirish.

Berilgan matnning mazmunini jumlalarning tartibini o'zgartirgan holda gapirib berish.

Bog'lanishli matndagi ortiqcha jumlalarni aniqlash.

Munozarali muammo yuzasidan fikr bildirish.

Nutq vaziyatiga mos keladigan matnni tanlash.

Og'zaki va yozma nutqni taqqoslash.

Demak, ona tili darslarida berilgan har bir mavzuni o'tish orqali o'quvchilar nutqini muloqot asosida tashkil etish masalasiga jiddiy e'tiborni qaratish lozim. Bu albatta, ularning dialogik va monologik nutqlari orqali yaqqol ko'zga tashlanadi.

Umuman, dars dars jarayonida iloji boricha o'quvchilarni ko'proq muloqotga kirishtirish kerak. Bu o'z navbatida yangi pedagogik texnologiya asosida olib boriladigan darslarda yaxshi samara beradi.

Vatanni ertasi shu jajji farzandlarimiz qo'lida ekanligini xis etgan holda jamiyatimizga bunyodkor, oqil-u dono yoshlarni kamol topishiga o'z xissamizni qo'shishimiz kerak.

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi eng avvalo, zamonaviy texnologiyalardan foydalana olish, kasbini mehr bilan sevishi, har doim izlanishda bo'lishi hozirgi zamon talablari asosida namunali dars o'ta olishi san'atiga ega bo'lishi kerak.

“Bolalar erkin, mustaqil fikrlashga o'rgatish, har bir o'quvchiga individual yondoshish sinfda o'quvchilar uchun ijodiy muhit yaratish, mustaqil qarorlar qabul qilish, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish. Bularning hammasi hozirgi zamon pedagoglarining oldida turgan asosiy vazifasidir.”¹¹⁷

Ta'lim tarbiya jarayonining eng nozik nuqtasi poydevori boshlang'ich ta'limidir. Shunday ekan darslarda kim qanday natijaga erishmoqda? Bu savolga albatta tajribali, ijodkor izlanuvchan o'qituvchi javob berishi mumkin. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlar natijasida darsning shakli va mazmuni, ta'sirchanligi, samaradorligi ham o'zgardi. Dars samaradorligini oshirish usullaridan biri darslarda AKT dan foydalanishdi.

Bugungi zamonaviy o'qituvchi har qanday yangiliklarga intiluvchan, uni to'g'ri qabul qilib, o'z o'quvchilariga yuksak darajada yetkaza olishi zarur.

Darslarni yuqori saviyada o'tishi uchun avvalo darsning texnologik xaritasini to'g'ri tuzish kerak.

Har bir fan o'qituvchisi o'ziga xos uslubga ega. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish jarayonida AKT dan foydalanish har bir darsning sifat va samaradorligini oshiradi.

¹¹⁷ Boychiboyeva. M. Boshlang'ich sinflarda axborot- kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish. “Xalq ta'limi” jurnali N.1.2018-yil, 53-bet

O'quv jarayonida kompyuter texnikasi axborot-kommunikatsion texnologiyalardan unumli foydalanish o'quvchilarni yaxshi bilim olishiga, mavzularni yanada chuqurroq bilib olishlariga yordam beradi.

Darslarda AKT dan foydalanish nafaqat yuqori sinflarda, balki boshlang'ich sinflarda ham o'z samarasini bermoqda. Yosh bolalarni kompyyuterga bo'lgan qiziqishlari borgan sari ortib bormoqda. Bu esa o'tilgan mavzuning amaliy tomonlarini ochib bermoqda.

O'quvchi dars jarayonida o'qiydi, eshitadi, ko'zi bilan ko'radi. Bu esa o'tilgan darsni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. AKT dan foydalanish o'quv jarayonini qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlaydi.

Kompyyuter orqali berilgan ta'limiylar o'yinlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bir vaqtning o'zida ham mavzuni eshitish, ham ma'lumotni kompyyuter ekranida ko'rish o'quvchi uchun ham o'qituvchi uchun ham foydalidir. AKT dan foydalanish o'quvchi darsga qiziqtirib, ma'lumotlarni qabul qilishni osonlashtiradi, o'quvchi bilimlarini mustahamlaydi.

Darsda o'quvchilar bilimini oshirish maqsadida mashqlar tashkil etadi. Mavzular bo'yicha qiziqarli, rangli rasmlar va topshiriqlar tayyorlanadi. Bu esa o'quvchilarni o'tgan mavzuni boshqa mavzularga nisbatan kuchliroq o'zlashtirishlariga, eslab qolishlariga yordam beradi.

Hozirgi kunda barcha ta'lim muassasalarida mana shunday darslarni tashkil qilish uchun barcha sharoitlar yaratilgan.

AKT dan foydalanish faqat o'quvchidan emas, balki o'qituvchilarni ham izlanuvchanligini oshiradi. Fanlardan qo'shimcha ma'lumotlar topishga undaydi.

O'quvchilarda esa fanga qiziqish uyg'otadi. O'z bilimini nazorat qilish va mustahkamlashga yordam beradi.

O'qituvchi bir soatlik darsi davomida yuqoridagi ish turlaridan foydalansa u ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida dars o'tgan bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy faoliyatini oshirib borishga yangi usul va noan'anaviy dars shakllari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bunday darslar

o'quvchiga davlat ta'lif standartlari darajasida bilim berish imkonini berdi.

Na'muna sifatida quyidagi slayddan foydalanish mumkin.

So'z hosil qilish o'yini:

5+ik = beshik

K+3 = kuch

T+10 = to'n


40+oyoq = qirqoyoq

Gur+uch = guruch

7+avlon = yettavlon

10+lab = o'nlab

Slayd orqali ko'rsatiladi



Gul ichidagi so'zlarni belgilang vaqt ichida so'z turkumlari bo'yicha ajrating.

Alifbodagi harflarni tartibini berilgan holda katakchalardagi so'zlarni o'rniga harflarni qo'yib, yangi mavzuga mos so'zni hosil qiling.

2	1	7	14	17
K	L	L	D	I

Dars mavzusi: 2-sinf sanoq sonlarni o'rganishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish

Darsning mavzusi	Sanoq sonlarni o'rganishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish
Darsning maqsadi va vazifasi	<p>Darsning maqsadi:</p> <p>Ta'limiylar: Mavzu yuzasidan o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish;</p> <p>Tarbiyaviy: O'quvchilarga jamoa bo'lib ishlash va o'zaro hurmat, madaniyatlichkeit, insoniylik, komillik kabi xislatlarni shakllantirish;</p> <p>Rivojlantiruvchi: Tafakkur, idrok va xissiyotni jilovlashni oshirish;</p>
O'quv jarayonining mazmuni	O'quvchilarga son so'z turkumi bo'yicha keng bilimlar berish Bitiruv malakaviy ishi mavzularidan kelib chiqib, yangi mazmundagi ijodiy mashqlar tuzish, ona tili darsligi asosida hamohang olib borish.
O'quv jarayoning amalga oshirish texnologiyasi	<p>Uslub: Og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, yozma.</p> <p>SHakl: Interfaol. Shu uslub aqliy xujum.</p> <p>Vosita: Axborot texnologiyalari kompyuter, elektron resurslar, darslik, plakatlar, tarqatma materiallar.</p> <p>Usul: Kompyuter o'yinlari, prezentsiya va slayd materiallari</p>

	<p>asosida.</p> <p>Nazorat: yozma, savol – javob, kuzatish.</p> <p>Baholash: Rag'batlantirish, 5 ballik reyting tizimi asosida.</p>
Kutiladigan natijalar	Son so'z turkumi haqida bilim va ko'nikmalari rivojlanadi, ularda yurtimiz haqidagi ma'lumotlar kengayadi.
Kelgusi rejalar	O'quvchi o'z faoliyatining tahlil asosida yoki hamkasblarining tahlil va takliflari asosida keyingi darslarga o'zgartirishlar kiritadi.

Dars rejasи va vaqt taqsimoti

1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Reja asosida yangi darsning borishi: a) Yangi mavzuga tayyorgarlik b) Yangi mavzuni bayoni d) Mustahkamlash	8 daqiqa 10 daqiqa 15 daqiqa
3	Darsga yakun yasash va baholash	5 daqiqa
4	Uyga vazifa	2 daqiqa

Darsning borishi:

Tashkiliy qism.

O'quvchilar: Assalomu alaykum!

Xush kelibsiz sinfimizga

Bugun aziz mehmonlar

Sizga bo'lsin bor ehtirom

Sizga bo'lsin kalomlar

O'qituvchi: Salom aziz bolalar
 CHiroyli gul lolalar
 Aytingchi menga hozir
 Qaysi darsga siz tayyor.

O'quvchilar: Dillarga baxt ato etgan

Ona tilim, ona tilmsan
Ko'ngillarni ravshan aylagan
Jonu dilim ona tilimsan

O'qituvchi: SHe'ringizni mazmunidan bildimki, hozir ona tili darsi ekan. Darsni payg'ambarimizning muborak so'zlari bilan boshlasak, ya'ni : Ilm – ma'rifat kalitidir.

O'quvchi: Ilm sahroda do'st, hayot chorrahalarida tayanch, yolg'iz damlarda – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda rahbar, qayg'uli damlarda madadkor. Odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanga qarshi kurashda quroldir.

O'qituvchi: Balli ilm qanday kuchga ega ekanligini bilib oldik. Bugungi darsimiz yanada qiziqarliroq bo'lishi uchun sinfimizda guruhlarga bo'lib, bellashuv tarzida olib boramiz.

I –guruh: Hunarmandlar.

II – guruh: Tadbirkorlar.

III –guruh: Dehqonlar.

Qani o'quvchilar har biringiz o'z guruhlaringizni izohlab bera olasizmi?
I – guruh: Hunarli kishi xor bo'lmas.
II – guruh: Davlat xazinasini boyitish.
III – guruh. Mo'l hosilga yorug' yuz.

Maqsadimiz: yoshlikda ilm olib, turli hunar tanlaymiz.
Yaxshi kasblar tanlab farog'atda yashaymiz.

Balli bolajonlarim sizlarni men rag'byuatlantiruvchi ballar bilan tanishtiraman.

“5” ball “Omad”

“4” ball “Ishonch”

“3” ball “Harakat”

Bugungi darsimizda faqat omad va imshonchdan iborat ballarni qo'lga kiritasiz degan umiddaman.

O'qituvchi: Qani navbavtchi, bo'l hushyor

O'quvchi: Bugun darsda hamma bor.

O'qituvchi: Endi aytaylik olqish,

O'lkamizda bahoroy!

O'tgan mavzular yuzasidan o'quvchilar bilimini sinash maqsadida savol-javoblar tashkil qilish.

Quyidagi rebusda tushib qolgan tovushlarni o'rniga qo'ying:

X	U		S		N	
F		R		A	N	
P	O		T		X	

O'quvchilar quyidagicha to'ldirishga harakat qiladi:

X	U	R	S	A	N	D
F	A	R	Z	A	N	D
P	O	Y	T	A	X	T

O'tgan mavzu aql mashqlari orqali mustahkamlanadi:

Sigir buzoqdan..... (baland)

It otdan(past)

Achitib gapiruvchi shaxs.....(do'st)

O'zbekistonning poytaxti(Toshkent).

Yangi mavzuni boshlashdan oldin ketma – ket kelgan undoshlar haqida tushuncha hosil qilinib, izohlanadi.

Yangi mavzu bayoni:

O'quvchilarga son so'z turkumi bo'yicha tushunchalar berish, mashqlar bajarish orqali olgan bilimlarini tekshirish:

Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar **son** deyiladi. Sonlar nechta?, Qancha? So'roqlariga javob bo'ladi: nechta? (daftar) – 10 ta daftar, qancha? (kun) – besh kun.

Sonlar narsaning joylashish tartibini ham bildirib, nechanchi? So'rog'iga javob bo'ladi: nechanchi? (xona) – yettinchi xona, nechanchi? (qavat) – to'rtinchi qavat. To'rtinchi, yettinchi so'zlar tartib sonlardir.

Sanoq sonlarga **-inchi (-nchi)** qo'shimchasini qo'shish bilan tartib son hosil qilinadi: oltmishtalmishinch, yetti-ettinchi.

242-mashq.

O'qing, narsa-buyumlarning sanog'ini bildirgan so'zlarni aniqlang.

1.Bir tup gul yuz g'uncha ochadi.(Oybek) 2. Tovuqlarga har kuni uch mahal suv berardim, don-dun berardim. 3. Yoz chillasi qirq kun – yigirma beshinchi iyundan beshinchi avgustgacha. 4. "Uch og'ayni botirlar" ertagidagi otaning o'gitlarini esda tuting.

O'quvchilarni bajargan ishlarini tahlil qilish.

O'quvchilarni kichik bir boshqotirma bajarish orqali bilimlarini sinash.

Gul	...ola	Zor
Pa...	Sha	mol
Ham	...a	na

Guruhlarning ishtirokiga izoh berib, faol o'quvchilar rag'batlantiriladi.

243-mashq. Mustaqil ish tarzida bajariladi.

O'qing. Sonlarni aniqlang. Sonlar qaysi otlar bilan bog'lanib kelganini aniqlang va ularni yonma-yon yozing.

Bir yigitga qirq hunar oz.

Bir yil tut eksang, yuz yil gavhar terasan.

Bir mayizni qirq kishi bo'lib yer.

Bir kishi ariq qazir, ming kishi suv ichar.

Bir qushim bor ikki qanotli: bir qanoti oq, ikkinchi qanoti qora. (Topishmoq, kecha va kundauz).

Dam olish daqiqasi o'tkazish.

Bolalarga sanoq sonlar bo'yicha kompyuter orqali sonlarni qo'shish va ayirishni o'rgatish maqsadida "Mening bog'im" o'yinidan foydalanamiz. Bunda bolalar guruhlarga bo'linib chaqqonlik bilan olmalarni terib oladilar.

O'qituvchi: O'quvchilarim, bog'imning bulbulchayu, gulg'unchalari bugungi darsga hammangiz faol qatnashdingiz. Endi guruhlarning omad, ishonch, harakatdan iborat ballarini sanabyu o'tamiz.

1-o'rinni "Tadbirkorlar" guruhi qo'lga kiritdi.

2-o'rinni "Dehqon"lar guruhiga nasib etdi.

3-o'rinni "Hunarmandlar" guruhiga berildi.

Xulosa: Qani o'quvchilar bugungi darsimizdan qanday taassurot oldingiz? Son so'z turkumi haqida qanday tushunchaga ega bo'ldingiz? Rasmlarga qarab hikoya tuzishni o'rganib oldingizmi?


Uyga vazifa: 272-mashqni shartiga asosan bajarib kelish.

Bugungi darsimizda faol ishtirok etgan jajji o'g'il qizlarimizga qarab mustaqil O'zbekistonimizning davomchilari bo'lgan siz aziz o'quvchilarimga shunday degim keladi.

O'zbekiston avaylagin bolalaringni,
Boshin silab qosh-ko'zu qoralaringni,
Bugun omon yursa ertaga ular,
Boylab qo'yar yetmish yillik yaralaringni.

Darsimiz tugadi, xayr o'quvchilar!

Rag'batlantiruvchi ballar.



Guruhlar nishonlari

Shu o'rinda shuna alohida qayd etish lozimki, biz bitiruv malakaviy ishlarimizni zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida olib borganimiz bois, unda aks etgan dars ishlanmalaridagi mashqlarini ham mustaqil tuzishga harakat qildik.

Dars mavzusi: 2-sinf sanoq sonlarini o'rganishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish

Darsning maqsadi: **Ta'limiylar:** Mavzu yuzasidan o'quvchilarda bilim, ko'nikma, malaka hosil qilish; **Tarbiyaviy:** O'quvchilarga jamoa bo'lib ishslash va o'zaro hurmat madaniyat, insoniylik, komillik kabi xislatlarni shakllantirish; **Rivojlantiruvchi:** Tafakkur iroda va xissiyotni jilovlashni o'rgatish.

O'quv jarayonini amalga oshirish mazmuni: O'quvchilarga son so'z turkumi bo'yicha keng bilimlar berish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi: Uslub: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, yozma.

SHakl: INterfaol.

Vosita: Axborot texnologiyalari kompyuter, elektron resurslar, darslik plakatlar, tarqatma material

Usul: O'yinlar

Nazorat: yozma, savol-javob, kuzatish.

Baholash: 5 ballik reyting tizimi asosida rag'batlantirish;

Kuzatiladigan natijalar: Son so'z turkumi haqida bilim va ko'nikmalari rivojlanadi. Ularda son haqidagi ma'lumotlar kengayadi.

Kelgusidagi rejalar(tahlil o'zgarishlar): O'qituvchi o'z faoliyatining tahlil asosida yoki hamkasblarining tahlil va takliflari asosida bugungi darslarga o'zgartirishlar kiritadi.

Dars rejasi va taqsimoti:

Tashkiliy qism.

Reja asosida yangi darsning borishi:

- A) Yangi mavzuga tayyorgarlik (8 daqiqa)
- B) Yangi mavzu bayoni (10 daqiqa)
- S) Mustahkamlash (15 daqiqa)
- 3. darsga yakun va baholash (5 daqiqa)
- 4. Uyga vazifa (2 daqiqa)

Darsning borishi:

Tashkiliy qism: Sinfdagisi o'quvchilarning davomati, ularning darsga tayyorgarligi
Darsdan oldin o'quvchilarni guruhlarga bo'lib olinadi.

1 guruh: Chaqqonlar

2-guruh: Bilag'onlar

3-guruh: Topqirlar.

Bu guruhlarga bo'lib olinib rag'batlantirish uchun:

“5” ball “Omad”

“4” ball “Ishonch”

“3” ball “Harakat”

O'quvchilarni ruhlantirib, faqat omad va ishonchdan iborat ballarni olishga chorlaydi.

Yangi mavzu bayoni:

O'quvchilarga son so'z turkumi bo'yicha tushunchalar berish, mashqlar bajarish orqali bilimlarini tekshirish.

Shaxs va narsalarningsh sanog'ini bildirgan so'zlar son deyiladi. Sonlar nechta? Qancha? So'roqlariga javob bo'lidi. Nechta? (daftar) o'nta daftар, qancha? (kun) –besh kun.

Sonlar narsalarning joylashish tartibini ham bildirib nechanchi? So'rog'iga javob bo'ladi: nechanchi? (xona) –etinchi xona , nechanchi? (qavat) –to'rtinchi qavat. To'rtinchi, yettinchi sonlar tartib sonlardir.

Sanoq sonlarga Sanoq sonlarga –**inchi (-nchi)** qo'shimchasini qo'shish bilan tartib son hosil qilinadi: oltmish-oltmishinchi, yetti-ettinchi.

243-mashq. O'qing, narsa buyumlarning sanog'ini bildirgan sonlarni aniqlang.

1. Bir dona gul yuz g'uncha ochadi.
 2. Shaxzoda qirq kecha-yu, qirq kunduz to'y-u bazm qilib beribdi.
 3. Uch og'aynilar yo'llarimda uchragan barcha yovlarni yengib o'tibdilar.
- Guruhlarning ishtirokiga izoh berib, faol o'quvchilarni rag'batlantiriladi.

Keyingi mashqda sonlar qaysi otlar bilan izohlanib, bog'lanib kelganini aniqlang va ularni yonma-yon yozing.

Bir yigitga qirq hunar oz.

Bir mayizni qirq kishi bo'lib yer.

Qing'ir ishning qiyig'i qirq kunda bilinadi.

Bir kishi ariq qazir, ming kishi suv ichar.

Dam olish daqiqasi o'tkazish.

Bolalarga sanoq sonlar bo'yicha kompyuter orqali sonlarni qo'shish va ayirishni o'rgatish maqsadida "Mening bog'im" o'yinidan foydalanamiz. Bunda bolalar guruhlarga bo'linib chaqqonlik bilan olmalarni terib oladilar.

Bu orqali kim ko'p olma tergan bo'lsa o'sha guruh g'olib bo'ladi, ular o'zlariga "ishonch", "omad" ballarini guruhlariga keltiradilar.

1-o'rinn Bilimdon

2-o'rinn CHaqqonlar

3-o'rinn Topqirlar.

Xulosa: O'qituvchi o'quvchilardan bugungi qanday dars va ularda bu dars haqida qanday tasavvur uyg'onganini so'raydi.

Uyga vazifa. Keyingi mashq. **244-mashq**.

Bugun darsda o'quvchilar faol ishtirok etgancharni ko'rib, O'zbekiston vatanimiz kelajagi buyukligi va mustaqil yurtimiz ertangi kuni ishonchli qo'llarda ekanligi isboti bo'ladi.

O'quvchilar ona tili darslarida shaxs va narsaning son-sanog'ini o'rGANADILAR. Bu ko'nikmalarbi 1-sinfdan boshlab o'rGANADILAR.

Bu mavzuni tushuntirishda multimedia ilovalaridan foydalanib unumli natijalarga erishamiz. Bolalarga gullar rasmini ko'rsatib ularni sanatamiz. Bu sonlar sanoq sonlar ekanini tushuntiramiz.

Sanoq son. Narsalarni miqdorini bildiruvchi sonlar sanoq sonlar deyiladi. Sanoq sonlar yozuvda ko'pincha arab raqamlari bilan yoziladi. Masalan, ikki, uch, besh, yigirma kabi. Sanoq sonlar predmetning miqdor belgisini bildirgani uchun otga sifatlovchi bo'ladi va shakliy jihatdan o'zgarmaydi, otga bitishuv yo'l bilan bog'lanadi. Masalan, ikki yo'lovchi, uch qiz kabi.

O'quvchilarga sonning ma'nosi va uning grammatik belgilari bilan tanishib fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lishi uchun "O'yla izla top!", "Topag'on", "Tarmoqlash" metodi ta'limiyl o'yini orqali mavzu yuzasidan beriladigan mashqlar tushuntirib "Do'stimga ishonaman" ta'limiyl o'yini orqali bilimlarini nazorat qilamiz. Og'zaki qo'shimcha savollar beramiz:

Nechanchi sinfda o'qiysiz?

Nechanchi qatorda o'tirasiz?

Oilada nechanchi farzandsiz?

Sinf xonasida nechta gul bor?

Shu kabi sinf xonasidagi jihozlarni sanog'iga oid bir necha savol-javob o'tkazamiz.


Multimedia ilovasida berilgan topishmoqlarni birga ishlaymiz.

Raqamlar hayotimizda qanchalik muhim o'rinn egallaganligini turli misollar keltirib, yil fasllari haqida topishmoq va maqollar aytildi.

Multimediada mashqni qanday bajarish ko'rsatilgan.

Tok ko'chati haqida ma'lumot beriladi. Endi bolalar bilan rasmlar asosida savol-javob o'tkazamiz. Masalan, tok rasmi uchinchi yili hosilga kiradi. Olma beshinchi yili, o'rik uchinchi va hokazo. Sinf xonamizda shkaflar tartib bilan joylashgan, ularni sanash orqali ham takrorlaymiz. O'quvchilarga savollar berib, misollar keltiradilar. Masalan, yoshigiz nechida? Bir yilda necha oy bor? "Sonli rebus" o'yini o'ynatib mustahkamlash mumkin:

To'rtko'z – 4 raqami, ko'z rasmi.



beshariq – 5 raqami, ariq rasmi.

4- ; 5-

sakkizoyoq – 8 raqami, oyoq rasmi.

Kabi misollar bajarish mumkin.

Son shaxs va narsalarning miqdorini belgisini ko'rsatadigan mustaqil so'zdir.

Son otga bog'lanib, ot ifodalagan shaxs va narsaning miqdoriy belgisini ko'rsatadi. Masalan: o'nta o'quvchi, beshta sinf.

Son otga bog'lanmagan holda ham ishlatalishi mumkin. bunday paytda mavhum miqdorni ifodalaydi. hisob amallarida miqdor aniq shaxs va narsalarga bog'lab ifodalanmaydi. Masalan: o'n uchga to'rtni qo'shsak, o'n yetti bo'ladi.

“Sinchkov o'quvchi” ta'limiy o'yini o'tkaziladi. Bu o'yin orqali o'quvchilar ziyraklikka, sinchkovlikka, e'tiborli bo'lishga harakat qilishadi. O'qituvchi turli rasmlar ko'rsatish orqali o'quvchilarga savol beradi. O'quvchilar rasmni diqqat bilan kuzatib, savolga javob beradilar. O'quvchilarning asosiy vazifasi javobidan tartibni va sanoqni bildiradigan so'zlarni aniqlashi kerak. Aynan shu so'zlarni toppish uchun qanday so'roqlar yordam bergenini aniqlashadi.

Na`muna:

O'qituvchi o'quvchilarga sinf xonasini tozalayotgan o'quvchini ko'rsatadi.

1. Sinfni nechta o'quvchi tozalayapti?
2. Ularning nechtasi qiz bola?
3. Nechtasi o'g'il bola?
4. Sinf xonasida nechta deraza bor?
5. Derazada necha gul bor?

Multimediali matn beriladi. O'quvchilar gap chegarasini aniqlab, mazmuniga mos tinish belgilarini qo'yishlari kerak. Tinish belgilari to'g'ri topilsa, tinish belgisi joyida qoladi va qarsak ovozi eshitiladi. Aksi bo'lsa “O'ylab ko'ring” deyiladi.

Mavzu: Sanoq va tartibni bildirgan so'zlar. 256-mashq.

Topishmoqlarni o'qing. Javoblarini toping.

Bir chuqurda ming chuqur,

Chuqurni igna cho'qir.

Qirq ko'y lagi bor,

Bir tugmasi yo'q.

Yozing. Narsalar sanog'ini bildirgan so'zlar tagiga to'lqinli chiziq chizing.

Topishmoq javobini topishda sizga qaysi so'zlar yordam beradi? Shu so'zlar qaysi so'roqlarga javob bo'lyapti?

Bir chuqurda ming chuqur,

Chuqurni igna cho'qir. (angishona)

Qirq ko'y lagi bor,

Bir tugmasi yo'q (karam)

Narsalar sanog'ini bildirgan so'zlar savollar yordamida aniqlanib, tagiga to'lqinli chiziq chiziladi.

Shaxs va narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar nechta? Qancha? so'roqlariga javob bo'ladi.

Narsa va shaxsning tartibini bildirgan so'zlar nechanchi? So'rog'iga javob bo'ladi.

O'quvchilardan bu topishmoqning javobini topishda qaysi so'zlar yordam bergenini so'rayman. Topishmoqlar javobini topishda sizga qaysi so'zlar yordam berdi? Shu so'zlar qaysi so'roqqa javob bo'ladi? Demak, nechta? Qancha? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar shaxs va narsalarning sanog'ini bildirar ekan.

Nechanchi? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlar esa narsa va shaxsning tartibini bildirar ekan.

Bundan tashqari ekran orqali bu mashqqa mos topishmoqlar orqali mashqni mustahkamlab olamiz.

Qirq hujrada qizil qizlar

(anor)

Bir kosada ikki ovqat

(tuxum)

Ikki botir qilichlashar

(qaychi)

O'quvchilar topishmoqning javobini topadilar va javobini topishda qaysi so'zlar yordam bergenini aytadilar.

2.2.Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so'zlarni o'rgatishga oid mashqlarni bajarishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.

Ona tili darslarida avvalo tovush va harflarni to'g'ri talaffuz qilib yozishni, husnixat yozishga o'rgatiladi.

Avvalo, darsni salomlashishdan boshlanadi. Dars mavzusi e'lon qilinadi. Darsni maqsad va vazifalari e'lon qilinadi. Demak, bugun sanoq, tartib sonlar ekan savollar asosida beriladi. Masalan:

1. Bugun nechanchi sana?
2. Bugun haftaning nechanchi kuni?
3. Siz nechanchi mакtabda yoki sinfda o'qiysiz?
4. Siz oilada nechanchi farzandsiz?

Bu savollar bilan o'quvchini tezkor savollar bilan o'quvchini tezkor savollar berilib, "Aqliy hujum" o'yinidan foydalanamiz. Hozirgi kunda darsni aniq maqsadini o'quvchiga yetkazish uchun multimedialardan foydalanishimiz zarurdir. Buning uchun biz vaqtdan unumli foydalanamiz. Mavzuni kitobda berilgan mashqlarni har biriga ko'rgazmalar tayyorlashimiz kerak.

Dam olish daqiqasi

Oynar beshta qiz bola

Go'yo ochilgan lola

Do'stlar keldi beshta

Ayting ular bo'lди nechta?

She'riy dam olish daqiqasini o'tkazib, ulardagi qizlar sonini topishlari kerak. Demak, bizni ona tili darsimiz matematika darsimiz bilan ham bog'liq ekan. Qizlar soni 10 ekanini aytildi. Yuqorida berilgan har bir savolga javob olib, 1-savolda tartib sonlar ishtirok etgani, 2-savol, 3-savol, 4-savollardan ham tartib sonlarga misol bo'la oladi. Endi sinfda nechta bola o'qiydi? Deb savol beriladi. Bu javobda 25 ta deb javob olinadi. Bu esa o'quvchi sonini bildiryapti. Demak, nechanchi?

so'rog'iga javob bo'lgan so'z tartibni, nechta? Qancha? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar son-sanog'ini bildiryapti. Mavzuga doir berilgan mashqni bajarishda yuqoridagi savollarga javob b o'lган so'zlar o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiriladi. Bunda o'quvchilarni mustaqil yozish malakasini oshirish uchun doskaga navbat bilan bajartiriladi. Darsni mustahkamlash uchun bolalarga tarqatmali testlardan ham foydalanish mumkin. Bunda o'tgan va bugungi mavzuga doir savollar o'qituvchi tomonidan o'qiladi. "A", "B", "D" harflari yozilgan shakllar bo'ladi. Bu o'yinda vaqtdan unumli foydalanish mumkin. Yana o'quvchini tez fikrini jamlab olishga yordam beradi.

Darsda ishtirok etgan o'quvchilar baholanib, uy vazihasini tushuntirib beriladi.

Test savollari:

1.Sanoq sonlar qanday savollarga javob bo'ladi?

- a) qanday? Qanaqa?
- b) nima qildi?
- d) nechta? Qancha?

2.Tartib sonlar qanday savollarga javob bo'ladi?

- a) nechanchi?
- b) nimaga?
- d) qaysi?

3.O'zbek tilida nechta undosh tovush bor?

- a) 24 ta
- b) 29 ta
- d) 30 ta

Bu mashqlar darsni 2-3 minutini tashkil etadi. A B D

Bu o'yindan darsda 2 yoki 3 marta foydalanish mumkin. O'qish, matematika darslarida ham foydalansa bo'ladi.

Barkamol inson shaxsini shakllantirishdagi muhim vazifa erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan. Fikrlash jarayoni har bir insonda o'ziga xos tarzda mavjud bo'lib, fikr yuritish insonni inson sifatida mavjud ekanligi, uni

ruhan va aqlan sog'lom ekanligidan dalolat beradi. Iutaqil fikr yuritish inson oldida ko'ndalang turgan muammoni o'ziga xos maqsadga erishish uchun mavjud bilimga tayanish asosida tanlangan usullar va vositalar ko'magida erishishga qaratilgan aqliy faoliyatdir. Boshlang'ich ta'lim uzviylashtirilgan DTS da o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishdan iboratdir.

Har bir darsda o'quvchining ijodiy fikrlash doirasini kengaytirib borish uchun axborot texnologiyalari va multimedia vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchining har bir savol yoki topshirig'iga tmunosib javob berish uchun fikrlashga majbur bo'ladi va bilimiga tayangan holda o'z fikrini bayon qiladi. Ko'p hollarda o'qituvchi darslikdagi savol qanday bo'lsa shunday beradi va javob ham aynan qabul qilinadi. Bunday hollarda ijodiy fikrlash jarayoni sodir bo'lmaydi. Buning uchun muammoli ta'lim usullarini qo'llash lozim. Ta'limda muammoli yondoshuv o'quvchini tayyor bilim, muayyan chegara, belgilangan qolip asosida fikrlashdan bir oz bo'sada chetlashtiriladi. Darslarda muammoli metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda avvalo, og'zaki nutqni rivojlantirishdan boshlanadi. Bu borada innovatsion ta'lim hozirda o'z samarasini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov, -“Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq”¹⁸, -deb ta'kidlaganlar.

Ta'lim-tarbiya jarayonida dars samaradorligini oshirish, o'quvchilar bilimini mustahkamlash, o'quvchilarning darsga qiziqishlarini oshirishda innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llash tobora keng tus olmoqda. Bunday metodlarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning o'qish motivlarini o'stirib ijodiy fikrlashini oshiradi.

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqarishi zarur. Dars loyihasini

¹ Karimov I. Yuksak bilimli va intellectual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti. || “Xalq so'si” №:35. 2012 yil.

tuzishda o'qituvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim. Ushbu o'rinda boshlang'ich ta'lism o'qituvchilarini birinchi sinfdayoq O'zbekiston ta'lism tizimiga kirib kelgan muammoli ta'limning birinchi sinfda muammoli ta'limning birinchi darajasidan foydalanib maqsadga erisha olsak, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi sinflarda ikkinchi darajadan qisman foydalana olamiz.

Bugungi kunda uzluksiz ta'lism tizimimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarni yanada takomillashtirish uchun kompyuter texnologiyasini ta'lism jarayonidagi o'rni, uning pedagogik va psixologik xususiyatlarini ilmiy-tadqiqot misolida yoritish, kompyuter vositalaridan foydalanishga bo'lgan e'tibor va ehtiyoj darajalarini yana bir bora ko'rib chiqishni talab etadi.

“Yurtimizda jamiyatning ma'naviy yuksalishi, fuqarolar, xususan yosh avlodning ma'naviy-ahloqiy kamoloti masalasiga istiqlolning ilk yillaridanoq kuchli e'tibor berilib, bu yo'nalishda aniq maqsad va vazifalar belgilandi. Umumta'lism maktablarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini, zamonaviy axborot-kommunikatsiya, internet va multimedia o'quv resurslaridan foydalanishi ta'lism texnologiyasini tarkibiy qismi hisoblanib, u sifat samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.”¹⁹ Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darjasini, bolalar psixologiyasi bilan birqalikda AKTni bilishi ta'lism sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Bugun boshlang'ich sinf o'qituvchisi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanadi. Chunki sog'lom va barkamol insonni yetishtirish, uni tarbiyalash boshlang'ich sinf o'qituvchisini asosiy vazifasi sanaladi. AKT ni bilish o'qituvchiga anchagina qulayliklar yaratadi. O'zaro ma'lumot almashish, ta'limga yangiliklardan xabardor bo'lish, o'zi yaratgan yangiliklarni oson ommalashtirish, doimiy o'z ustida ishlashiga sharoit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'quvchilarning ijodiy fikrlashini o'stirish muhim hisoblanadi. Bu borada

¹Ibragimov X..I. Ta'limga texnologiyalashtirish va undagi samaradorlikni aniqlash. || “Uzluksiz ta'lism” jurnali. №:6. 2004 yil. 15-bet.

innovatsion ta’lim o’quvchilar ijodiy tafakkurini o’stirishning asosiy vositasi hisoblanib, u orqali o’quvchilarning fikrlashini o’stirishda o’qituvchi samarali natijaga erishishi mumkin.

Ona tili darslarida har bir mavzuni axborot kommunikatsiya va ilg’or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib o’tish katta ahamiyatga ega. Davlat ta’lim standartlarida o’quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish bosh maqsad qilib belgilangan. Buning uchun dars jarayonida elektron darslik, qo’llanma, dars ishlanma, o’quv film, videorasmlar, slaydlar va ko’rgazmali materialllar bo’lishi lozim. Dars jarayonida faqat o’tilayotgan mavzuga oid materiallardan – elektron dars ishlanmasi, multimediali vositalar yoki videofilm, o’quv filmlari, didaktik materiallardan foydalanish ta’lim sifati hamda samaradorligini ta’minlaydi. O’quvchi darsni ma’ruza shaklida eshitishdan ko’ra, slaydlar orqali ko’rib, ba’zi mashqlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o’zlashtirishi osonlashadi.

Hozirgi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o’quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo’llarini o’rgatish, ta’lim jarayonida ilg’or pedagogik texnologiya usullarini samarali qo’llashdan iborat. Ona tili darslarida ta’limning interfaol usullaridan foydalanish o’quvchilarda mantiqiy, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini shakllantirib, guruhlarda va hamkorlikda ishlashga o’rgatadi. Dars jarayonida ta’limiy o’yinlarni samarali qo’llash orqali o’quvchilarda tezkorlik, topqirlik, sezgirlik, bilim olishga va fanga bo’lgan qiziqarli yanada oshadi.

Ona tili kommunikativ kompetensiyasi – ona tili egallagan bilim, ko’nikma va malakalarini muloqot jarayonida qo’llash qobiliyati.

O’quvchilarga til sathlarining tovush va harf, alifbo, unli va undosh tovushlar miqdori, unli va undosh tovushlar talaffuzi, bosh harf va kichik harflar imlosi, tutuq belgisi, so’z va uning lug’aviy ma’nosи, asos va asosdosh so’zlar, qo’shimchalar, so’z yasovchi, egalik, kelishik, shaxs-son qo’shimchalari, so’z va uning so’roqlar asosida ma’nosiga ko’ra guruhash (shaxs, narsa, belgi, harakat, miqdorni bildiruvchi so’zlar), so’z turkumlari va ularning xususiyatlari alohida


e'tiborga olinadi. To'g'ri 1-2-sinfda so'z turkumlari atamali ishlatilmaydi. Xususan, 2-sinfda “sanoq va tartibni bildirgan so'zlar” alohida bo'lim qilib ajaratilgan.

Bu sinfda o`quvchilar og'zaki va yozma ijodiy ishlariga katta o`rin beriladi. O`quvchilarni son ma'nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasi o'stiriladi.

Uchinchi bosqichda, ya'ni 2-sinfda son haqidagi bilimlarni takomillashtirish, o`quvchilarda og'zaki va yozma nutqda son aniq, o'rinali foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda –ovlon, -ola qo'shimchasi bilan qo'llangan sonlarni to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi.

O`quvchilarda son-so'z turkumiga oid olgan bilimlarini mustahkamlashda ham didaktik topshiriqlardan foydalanish ta'lim tarbiya samaradorligini oshirish va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishda alohida o`rin tutadi. Boshlang'ich sinflarda son –so'z turkumini o'rgatishgda quyidagi didaktik o'yin topshiriqdan foydalanish mumkin. Bu topshiriqda berilgan predmetlarga ularga tegishli bo'lган, ya'ni sonlarni bildiruvchi so'zlarni ko'rsatkichli chiziqcha bilan birlashtirib chiqadilar. Bunday o'yin topshiriqlardan dam olish daqiqasida ham foydalanish mumkin. O`quvchilar bunday topshiriqlarni bajarish jarayonida yanada faollashadilar va fikrlab, ba'zi son larni berishda o'zaro bahslashadilar. Bu bilan ularda olingen bilim mustahkamlanish bilan bir qatorda tanqidiy fikrlash, o'z fikrini himoyalash kabi malakalar shakllantiriladi.

Masalan:





Yettita



Bir

Ta’lim jarayonining maqsadi DTS, o’quv rejasi va dasturi, shuningdek, darslik, qo’llanmalarda belgilab berilgan muayyan mavzu hamda fanning o’ziga xos jihatlari, mavjud pedagogik shart-sharoitlar, o’quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ularning hayotiy ehtiyoji va qiziqishlari, ta’lim beruvchi bilim va malaka darajasi, dunyoqarashi, ijodkorligi, vaziyatni baholash hamda unga muvofiq tezkor harakat qila olish layoqatlarini inobatga olish asosida belgilanadi. Ta’lim jarayonida shaxsning yosh ko’rsatkichlari tabiiy uning shakllanish bosqichlariga mos ravishda tasosiy maqsaddan kelib chiqib darajalanadi.

Diqqat: O’qituvchi savol-javob jarayonida hammaning fikrini eshitishga erishishi kerak. Hech kimda savol, taklif, fikr qolmagandaginga muhokama tugatiladi.

Xulosa: agar odamlar maqsad sari intilib, faoliyatları shunga qaratilsa, albatta natijaga erishadilar.

Maqsad bu-erishish, amalga oshirish uchun ko’zda tutilgan

Dars maqsadi –bu dars jarayonida yoki dars oxirida erishiladigan natijalarning yozma ifodasidir.

Dars vazifasi –maqsadga erishish yo’lida o’quvchi yoki o’qituvchi bajaradigan faoliyatning yozma ifodasi

Maqsadni natijaga aylantirish uchun maqsadga erishish yo’lidagi vazifalarni belgilab olmoq lozim va shu belgilangan vazifalarni bajarish kerak. Ba’zi hollarda kerak bo’lganda maqsadni va vazifalarini qayta ko’rmoq lozim. Buning uchun doimiy monitoring o’tkazish lozim.

Darsga qo’yilgan maqsad 45 daqiqa davomida bajariladigan (erishiladigan, aniq hayotiy va dars yakunida baholanadigan (o’lchamli) bo’lishi maqsadga muvofiq:

A) Ta’limiy maqsad – dars jarayonida o’quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko’nikma va malakalar asosida belgilanadi;

B) Tarbiyaviy maqsad –dars jarayonida o’quvchilarda qaysi axloqiy sifatlar shakllantirilishi asosida belgilanadi;

S) Rivojlantiruvchi maqsad –dars natijasida o’quvchilarda qaysi bilimlar va axloqiy fazilatlar rivojlantirilishi asosida belgilanadi.

Savolni qanday tuzish kerak?

Savolni qisqa va aniq ayting.

1 ta savol bilan faqat 1 ta ma’lumot/axborotni so’rang.

Savolni bevosita mavzu bilan bog’lab bering.

Savolda tushunarloi so’zlarni qo’llang.

Har bir savolga bir necha hil javob bo’lishiga erishing.

Aniq savollardan umumiy savollarga qarab yuring, shunda savolga javoblarni olish osonlashadi.

“Ha” va “Yo’q” javoblari bo’lishi ehtimol bo’lgan savollarni kamroq ishlating, chunki javoblar to’g’ri yoki noto’g’ri bo’lishi mumkin.

Bolalar javob bera olmaydigan savollardan saqlaning.

Bolalar o’z tajribalariga tayanib javob beradigan savollarni ko’proq qo’llang.

O’z fikrini aytishga chorlaydigan savollarni tavsiya eting.

Agar savolga o’quvchilar javob berishda qiyalsalisa, savolni boshqa so’zlar bilan qayta tuzing.

Savollarga javob bergan vaqtlarida “Sen nima uchun shunday deb o’ylaysan?” replikasini berib turing.

Dars mavzusi: sanoq va tartib sonlar (237-238-mashqlar)

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: O’quvchilarning sanoq va tartib sonlar haqidagi bilimlarini aniqlash; sonlarni ajratib yozilishini o’rgatish; **FK1:** son va ularning yozuvda ifodalanishi, sanoq va tartib sonlar, ularning otga bog’lanishini bilish.

Tarbiyaviy: O’quvchilarda kattalarga hurmat, o’zaro yordam berish tuyg’ularini tarbiyalash; **TK3:** kattalarni hurmat qilish, ularning nasihatiga amal qilish, jamoat joylarida o’zini tuta bilish. **Rivojlantiruvchi:** so’z boyligini oshirish, **FK2:** mavzuga oid yangi so’zlarni og’zaki va yozma nutqda qo’llay olish;

yozma nutqda tinish belgilarini to'g'ri qo'llash; **TK2:** Turli manbalardan kerakli ma'lumotlarni izlab topish hamda undan foydalana olish.

Darslarning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, kichik guruhlarda ishlash, “Kim ko'p maqol biladi?”, “Do'konda” ta'limiy o'yini.

Darsning jahozi: Multimedia ilovasi, rangli rasmlar, raqamlar yozilgan tarqatmalar.

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism:

Husnihat daqiqasi

Katta-kichik besh o'rtoq

To'plansa bo'lar to'qmoq (Barmoqlar)

2. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. Uy vazifasini tekshirish.236-mashqning sharti o'quvchilarga o'qitiladi. Mashqning bajarilish tartibi o'qituvchi tomonidan tekshirib chiqiladi. Son-so'z turkumini mustahkamlash maqsadida savol-javob daqiqasi o'tkaziladi va umumlashtiriladi.

Sonlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi?

Sonlar gapda qanday vazifani bajaradi?

Sonlar necha xil ifodalanadi?

Qanday raqamlar dastlab paydo bo'lgan?

Arab-raqamlari rim raqamlaridan nimasiga ko'ra afzal.

3. Yangi mavzu bayoni:

237-mashq asosida o'qituvchi yangi mavzuni o'quvchilarga tushuntiradi. O'qituvchi o'quvchilarni 4 guruhga bo'ladi va maqollar yozilgan tarqatmani stol ustiga teskari qo'yadi. Guruh sardorlari bittadan tarqatmani olib maqollarning ma'nosini sharhlab beradi. Guruhdagi o'quvchilar sardorga yordam berishlari mumkin.

1-guruh: So'zdan so'zning farqi bor, 32 narxi bor.

2-guruh: Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi.

3-guruh: Tovuq yetti xazinaning biri.

4-guruh: Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar, elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

Maqolni eng yaxshi sharhlab bergan guruh g'olib hisoblanadi va taqdirlanadi.

O'quvchilar maqollarni ko'chirib yozadilar. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozadilar. Maqolda uchragan sonlarga savollar beriladi. Bu sonlar sanoq son ekanligini tushuntiriladi. (necha yil? 1 yil, 100 yil)

1-topshiriq. Trenajyor mashqidan foydalanib o'quvchilar chiziqchalar o'rniغا mazmuniga mos maqollarni qo'yib o'qiydilar va daftarlariга husnihat asosida yozadilar. "Kim ko'p maqol biladi?" ta'limiy o'yini. Bu ta'limiy o'yinda o'qituvchi doskaga 7, 8, 1, 100 kabi sonlarni yozib qo'yadi. O'quvchilar shu sonlar qatnashgan maqollar topadilar. Ko'p maqol topgan o'quvchi "Sinfimiz faxri" nominatsiyasi bilan taqdirlanadi.

4. Yangi mavzuni mustahkamlash.

2-topshiriq. 238-mashqda tasvirlangan rasm ekranda namoyish etiladi. O'quvchilar rasmni diqqat bilan kuzatadilar. Rasm asosida o'rtoqlari bilan suhbatlashadilar. O'qituvchi ularga nutqingizda mahsulotlarning narxi va miqdorini bildiruvchi so'zlarni qo'llash mumkinligini aytadi.

"Do'konda" ta'limiy o'yini.

-Bitta ruchka 250 so'm va bitta daftar 450 so'm turadi.

-Hammasinga necha so'm to'layman?

-Hammasinga 700 so'm berasiz.

Topshiriq: Tuzgan hikoyangizdan sonni topib, harfiy ifoda bilan yozing.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunlanadi va o'quvchilar bilimi baholanib, ballar izohlanadi.

VI. Uyga vazifa. 239-mashq. O'quvchilar uyda topishmoqning javobini topadilar va o'zi bog'langan ot bilan birga ko'chiradilar.

Darsning mavzusi: Sanoq va tartib sonlar (240-241-mashqlar)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quvchilarning sanoq va tartib sonlar mavzusida egallagan bilimlarini mustahkamlash; tartib sonlarning yozilishini tushuntirish; FK1: son va ularning yozuvda ifodalanishini, sanoq va tartib sonlarni, ularning otga bog'lanishini bilish.

Tarbiyaviy: o'quvchilar kasbga tayyorlash; TK2: darsda kitob bilan ishlash, o'rganilayotgan mavzuni, kerakli qoidani, mashqni topish, mashq topshiriqlarini tartibi bilan bajarish.

Rivojlantiruvchi: husnixat malakalarini rivojlantirish; FK2: mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi; TK2: turli manbalardan kerakli ma'lumotlarni izlab topish hamda undan foydalana olish.

Darsning turi: yangi tushuncha, bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish darsi.

Darsning metodi: suhbat, Venn diagrammasi, idrok metodi, o'yini.

Darsning jihizi: Multimedia ilovasi, mavzuga mos rangli rasmlar, tarqatma materiallar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnihat daqiqasi.

Ikki tog'ning orasida,

Bir tup yong'oq (Bodom)

Uyga vazifani tekshirish. 239-mashqning sharti o'quvchilarga o'qitiladi.

III. Yangi mavzu bayoni. 240-mashqni tushuntirishda o'qituvchi quyidagi savollar bilan o'quvchilarga murojaat qiladi:

-Matn qaysi yozuvchi haqida ekan?

-O'tkir Hoshimovning qanday asarlarini o'qigansiz?

O'quvchilarning javoblari tinglanadi va umumlashtiriladi.

O'quvchilar avval narsa va shaxslarning sanog'ini bildirgan sonlarni, keyin tartib bildirgan sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiradilar. Tartib sonlarning asos va qo'shimchasini belgilaydilar.

1-topshiriq. Ekranda matn beriladi. Matn ikkita rang turadi. (ko'k va siyohrang) 240-mashq matnini o'quvchilar o'qiydilar. Matn qaysi yozuvchi haqida ekanini topadilar. Avval sanoqni bildirgan sonlarni ko'k rang bilan, tartibni bildirgan sonlarni siyohrang bilan belgilaydilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

2-topshiriq. Yangi mavzuni mustahkamlashda o'qituvchi trenajyor mashqidan foydalanadi. 241-mashq sharti bilan o'quvchilarni tanishtiradi. O'quvchilar chiziqchalar o'rniga mazmunga mos raqamlarni tanlab, matnni o'qiydilar. Raqamlarni harfiy ifoda bilan yozib, matnni ko'chiradilar.

Namuna:

_____ oy qish xalq tilida _____ deyiladi.

Qish chillasi _____ kun davom etadi.

“Xotira” mashqi ta’limiy o’yini. O’quvchilarga chalkash yozilgan she’riy parchani tarqatadi. O’quvchilar misralarni o’z o’rniga qo’yib she’rni yozadilar va sonlarni aniqlab, tagiga chizadilar. O’quvchilar bilimiga rag’bat katochkasi berib boriladi.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunlanadi va o’quvchilar bilimi baholanib, ballar izohlanadi.

VI. Uyga vazifa. 242-mashq. O’quvchilar mashqni shartiga ko’ra bajaradilar.

2 .3.Sanoq va tartib sonlarni bildirgan so’zlarni o’rgatishda fanlararo bog’lanish.

Ma'lumki, pedagoglarimizning ta'lim –tarbiya nazariyasida o'quv fanlari o'rtaсидаги aloqaga katta baho berilib, bu aloqa bog'lanishi berilayotgan nazariy va amaliy bilimlarning ongli, faol, izchil asosli, tushunchalari va amaliyot bilan birligini ta'minlay oladigan asosiy omil ekanligini mumtoz pedagog olimlardan tortib, bugungi kungacha bot-bot ta'kidlab keladilar.

Ona tili-maktab fani bo'lib, uning boshqa fanlar bilan didaktik maqsadlarga qarab, har xil holatlarda ko'riliши mumkin. Ona tili hamma maktab tartiblari bilan bog'langanligini ko'rsatib bermoqda. Chunki til hamma fanlar bo'yicha ifoda

vositasi bo'lib, u haqiqatni hamma tarafdan tasvirlab ko'rsatadi. Tilni bilmasdan fikrlash faoliyati bo'lmaydi. Bu aloqaning mavjudligi aniq. Bu aloqa Ona tili-boshqa fanlar zanjirida o'rnatiladi, nafaqat ona tili uchun, hattoki boshqa fanlar uchun ham. Chunki til o'rganish quroli bo'lib, u o'quvchilarga har qanday fanni o'zlashtirishda hal qiluvchi sharoitdir. Ona tili maktab ma'lumoti fani bo'lib, keng nuqtai nazarga ega.

Matematikani ona tili fani bilan bog'laydigan mavzular: "Son", "Chama son", "Sanoq son".

Ona tilining maktabda fan sifatida boshqa o'quv fanlari bilan aloqasi asosan, har xil yo'nalishlarda qarab chiqilishi mumkin. Odatda, ona tili boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqlarini rivojlanishida asosiy o'rinni tutadi. Shunday ekan, ona tili barcha fanlar bilan bog'liq bo'ladi, chunki til hamma fanlarni ta'riflash uchun zarur vosita demakdir. Tilni o'rganmasdan turib, boshqa sohalarda faoliyat yuritish mumkin emas. Til qurol sifatida har qanday fandan o'quvchi bilim olishi shart bo'lgan sharoitlardan biridir. Ona tili mакtab ta'limida fan sifatida ko'p qirrali hodisadir va boshqa fanlar bilan aloqasi mazmuniga emas. Olimlarning fikricha, bir fan ikkinchi fandagi savollarni, masalalarni yechishda bir vosita hisoblanar ekan. Ana shunday bog'lanishi lozim bo'lgan fanlardan biri ona tili va o'qishdir. Bularga qo'shimcha tarzda tasviriy san'at, mehnat fanlarini ham uyg'unlashtirish fan doirasini kengaytiradi. Qaerda ikkita fanning o'zi emas, balki ko'proq fanlar integratsiyalansa, fanlarning aloqalar rivoji kuchayadi. Bunday darslar o'quvchilarni so'zga, ranglarning turfa olami, tovushlar sehriga chuqur kirib borishiga ko'maklashadi, savodli, og'zaki va yozma nutqlari shakllanishiga yordam beradi. Uning rivojlanishiga va boyishiga estetik didni oshirish, san'at asarlarini tushunish va to'g'ri baholay olishga, vatan tabiatini go'zalligi va boyligini xis etishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish darslari integratsiyasini tashkil etishda fanning talablari, vazifalari o'rganib chiqiladi. Qo'yilgan maqsadlar ham har ikkala fanga ham tegishli bo'lishi shart. Mujassamlashgan darsga mos mavzularni topish mushkul, lekin ona tili darsidagi mashqlarini bajarilishini o'qish

darsligidagi mos mavzularga uyg'unlashtirish mumkin bo'ladi. Bunda o'quvchi faqat o'qish yoki yozish bilan shug'ullanmasdan, balki har ikkisini ham bajarib boradi.

O'qish va ona tili darslarini o'zaro bog'lab olib borishda asosan ona tiliga oid mashqlarni bajarish jarayonida o'qish darslarida berilgan matnlardan foydalanish mumkin. Bunda bu ikki fanning dars jadvaliga birin-ketin qo'yilishi qulaylik tug'diradi. O'quvchilar o'qish darslarida o'tilgan mavzularni yoddan chiqarmagan holda ona tili darslarida ana shu mavzuda keng foydalanishlari mumkin. Bunda o'qituvchi darsga tayyorlanishda oldindan qaysi mavzular bir-biriga muvofiq kelishini aniqlab, sonlarga ularning o'zaro aloqasini yo'lga qo'yadi. Fanlarni bog'lab o'tishda faqatgina bir vaqtda kelgan mavzularni emas, balki o'tilgan mavzularni bog'lash ham o'quvchilarni o'tilgan mavzularni mustahkam egallashlari bilan birga o'rganilayotgan mavzularni hayotiy faoliyatlariga qo'llanishini o'zları amaliy faoliyatlarida guvohi bo'ladilar. Son so'z turkumiga oid materiallarni o'tishda o'qish darslariga berilgan "Hisob ilmidagi yangilik" matnini eslatish mumkin. Ushbu matnda asosan son so'z turkumiga oid so'zlar qo'llanilgan.

O'quvchilarga son so'z turkumi tushuntirilganidan so'ng "Hisob ilmidagi yangilik" matnini eslaymiz. Ular ushbu matnda ishtirok etgan son so'z turkumiga oid so'zlarni o'qib, aytib beradilar. Shunda o'qituvchi o'quvchilarga har bir so'z turkumini mana shunday so'zlashuv nutqida muhim ahamiyatga ega ekanligini aytib o'tishimiz maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quvchilar mana shunday o'rganayotganda narsalarning asl mohiyatini bildirganlaridagina bilim olishiga bo'lган qiziqishlari yanada ortadi.

Har ikki fanning o'zaro aloqadorligidan foydalanib, darslarni tashkil etishda nafaqat bu ikki fanning, balki boshqa fanlarning ham aloqadorlik imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, tasviriy san'at, mehnat, musiqa kabi fanlarning uyg'unligida tashkil etilgan darslar juda qiziqarli va samarali bo'ladi. Biz maktablardagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ish sharoitlarini o'rganar ekanmiz, ulardagи ko'rgazma, o'quv materiallari g'oyat kuchli ekanligi, sinf

xonalari o'quv tarbiya ishiga moslashtirilganligini ko'ramiz. Ammo bugungi o'quv-tarbiya ishimizda uning o'zagina yuksak pedagoglarimizni yuksak mutaxassislikka ega bo'lishlarini o'zi yetarli bo'lmayotganligini ham guvohi bo'lamiz. Xo'sh, nima kam, nima yetishmayapti? Tajribalar umumlashtirib o'rganilar ekan, xulosa o'quv tajriba ishidagi bog'liqlikni yo'qligi o'quv predmetlari orasidagi aloqani sustligi, hatto fanlavrdan berilayotgan bilim va malakalarni bir-biriga bog'lanishni talab darajasida emasligi ishimizni sust olib borilishiga asosiy sabab bo'layotganligini ko'rsatamiz CHunki ana shu bog'lanishlarni yo'lga qo'ygan o'quvchilar yaxshi natijalarga erishmoqdalar. Ona tili o'qitishning samaradorligini ko'rsatish masalalarini ishlab chiqishning eng yuqorisida fanlararo bog'lanish printsipi asosida o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini yoritib turishni unutmasligimiz kerak.

Biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shu tajribalarini umumlashtirib, quyidagi xulosaga keldik. Biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ona tili fani o'rganishning eng samarali effektli yo'li bu yuqoridagi o'quv fanlarini o'zaro bog'langan holda o'rganish imkonini yaratishdir. Shuningdek, bu fanni maktablarda aniqlovchi boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan o'rganilmaydigan fanlar bilan bog'langan holda o'qituvchining amalga oshirishidir.

-Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan ona tili fani dasturlari eng avvalo o'zaro va boshqa o'quv fanlari bilan bog'langan holda o'rganilishi mutlaqo taqozo etadi.

Bu bog'lanishni barcha mashg'ulotlarda amalga oshirilishi mumkin.

-Bu bog'lanish o'qituvchi mashg'ulotga tayyorgarligidan boshlanib, dars jarayonining barcha bosqichlarida shu ish uchun berilayotgan topshiriqni tushuntirishda va bu ishlarni tahlili davrida amalga oshiradi.

Ona tili fanini o'zaro va boshqa fanlar bilan bog'lanishi nazariy (didaktik va metodik), (amaliy) harakatiga namoyon bo'ladi.

Nazariy (didaktik) bog'lanish tabiatda va jamiyatda umuman moddiy olamda bo'layotgan va bo'ladijan voqeа-hodisalarini ilmiy doiralarini ona tili mazmunida ob'ektini bog'lanishini ifodalashtiruvchi didaktik sharoitga

aylantiriladi, ya’ni fanning ilmiy materialdan ijodiy foydalanish ona tili fanining har bir mashg’ulotida ta’lim darajasida (turli nuqtai nazaridan) o’rganiladi. Bu albatta, nutqni dastur talabiga ko’ra olinadi. Ana shu o’rganish sharoitida shu ob’ektni yoki voqeа-hodisani o’rganuvchi fanlarni ilmiy materialdan ijodiy foydalanish demakdir. Ona tili fanining metodik jihatdan (amaliy) foydalanish o’qituvchi bilan o’quvchining ijodiy hamkorligida ifodalanadi.

Son tushunchasi ona tilida ham, matematikada ham asosiy muhim tushunchalardan hisoblanadi. Ona tilida sonlarning ma’noviy guruhlarga ajratilishiga yondashuv, hisob so’zlari matematika fani uchun ham nihoyatda qiziqarli va diqqatga sazovor. Ona tili uchun esa “Son” mavzusida ulushlar, o’nli kasr, protsent (foiz) tushunchalarini misollar yordamida bo’lsa ham yoritish maqbul ko’rinadi.

Mualliflar son tushunchasi ona tilida va matematikada qanday ma’noviy guruhlarga bo’linishini qiyosiy tahlil qiladilar, bu esa takomillashtirilgan Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturlarida ta’kidlangan predmetlararo bog’lanishni o’rgatishda hamda o’rganilayotgan bililarning yaxlitligi, bir butunligini ta’minalashda foydali bo’ladi, degan umiddalar. Asosiysi, son tushunchasi mohiyati ona tilida ham, matematikada ham bir xil talqin qilinadi.

Ona tilida sonlar ikkita guruhga bo’lib o’rgatiladi: miqdor sonlar, tartib sonlar.

Miqdor sonlarni oltita qismga (ma’noviy guruhga) bo’lish mumkin: sanoq son, dona son, chama son, jamlovchi son, taqsim son, kasr son.

1. Son-sanojni bildiruvchi sonlar *sanoq sonlar* deyiladi. Matematikada o’rganiladigan natural sonlar-sanoq sonlardir, zero sanashda foydalaniladigan sonlar natural sonlar deyiladi. Sanoq son bilan *hisob so’zlari* o’zaro bog’lanishda bo’ladi. Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so’z o’rtasida qo’llanilib, bu narsalarning o’lchovini bildiradigan so’zlar *hisob so’zlari* deyiladi. Masalan: Rahima kelinoyisi Muqaddasga *bir hovuch dovuchcha* terib berdi. Bozordan *ikki qop piyoz* xarid qildim. Sigirimiz *bir*

chelak sut beradi. Bog'dan *uch savat anor* terdik. Bahrom bozorga *o'n yashik pomidor* olib keldi. Bir chimdim tuz; bir shingil uzum kabi.

Matematikada o'lchov birliklarini o'rganishda ona tilidagi hisob so'zlaridan foydalanish masala mohiyatini ochishda yaxshi samara beradi.

2. Sanoq sondan dona sonni hosil qilish uchun sanoq songa -ta qo'shimchasi; dona, nafar, bosh, tup kabi so'zlar qo'shiladi. Buni ushbu formula yordamida ifodalash mumkin:

$$\begin{array}{ccc} \boxed{\text{Sanoq son}} & \boxed{\text{ta}} & \boxed{\text{dona son}} \\ + & & = \\ \boxed{\text{Sanoq son}} & \boxed{\text{Dona, nafar, tup, bosh}} & = \boxed{\text{dona son}} \end{array}$$

4. Chama sonlar sanoq songa -tacha, -lab, -larcha qo'shimchalari qo'shish natijasida hosil no'ladi.

Masalan: o'yingohga *minglarcha* odam keldi. Uzoqdan *o'ntacha* mashina ko'rindi. U *o'nlab* maqolalar muallifi.

Ona tilidagi chama sonlar matematikadagi "Sonlarni yaxlitlash" mavzusi bilan uyg'unlikda. Chama sonlarning hosil bo'lismi jarayonini uchbu chizma yordamida ko'rsatish mumkin:

$$\boxed{\text{Sanoq son}} + \boxed{-tacha, -lab, -larcha} = \boxed{\text{chama son}}$$

5. Jamlovchi sonlar sanoq songa -ov, -ala, -ovlon qo'shimchalarini qo'shish natijasida hosil qilinadi.

$$\boxed{\text{Sanoq son}} + \boxed{-ov, -ala, -ovlon} = \boxed{\text{jamlovchi son}}$$

6. Taqsim sonlar sanoq sondan -tadan qo'shimchasi yordamida yasladi, hosil qilinadi.

$$\boxed{\text{Sanoq son}} + \boxed{-tadan} = \boxed{\text{taqsim son}}$$

7. Hayotda ko'pincha, butun miqdorning o'zaro teng bo'laklaridan foydalanamiz. Bunday bo'laklar ulushlar deyiladi. Masalan: bir butun to'rni teng bo'laklarga bo'lamiz; sutni kosalarga teng miqdorda quyishga harakat qilamiz.


Butunning bitta yoki bir nechta teng ulushlaridan tuzilgan son kasr deyiladi, ya’ni kasr son butun miqdorning qismini ifodalovchi sondir. Masalan: beshdan ikki; yuzdan bir; yettidan uch; oltidan besh.

Xususan, yettidan uch ibora quyidagicha tushuniladi: butun miqdor yettita teng qismga bo’lingan, shundan uchtasi olingan (uchtasi qaralyapti, o’rganilyapti). “Yettidan uch” sonlar yordamida $\frac{3}{7}$ kabi yoziladi. Chziqcha ustidagi son kasrning surati, tagidagi son maxraji, chziqcha ---- (yoki /) esa kasr chizig’i deyiladi.


8. Tartib sonlar -nchi, -inchi qo’shimchalari yordamida yasaladi.


$$\boxed{\text{Sanoq son}} + \boxed{-\text{nchi}, -\text{inchi}} = \boxed{\text{tartib son}}$$

Ona tilida sonlarni ma’noviy guruhlarga bo’linishini chizmada shunday tasvirlash mumkin:



Matematikada o’rganiladigan sonly to’plamlarni chizmada shunday tasvirlash mumkin:





Dasturga ko'ra, 2-sinfda shaxs va narsaning miqdorini, sanog'ini yoki tartibini bildirgan so'zlar haqida boshlang'ich ma'lumot beriladi. O'quvchilarda qancha?, nechta? Yoki nechanchi? So'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni so'roq berib aniqlay olish. Narsalar sanog'ini bildirgan so'zlarga qancha? Yoki nechta? So'rog'ini joylashish tartibini bildirgan so'zlarga nechanchi? So'rog'ini bera olish ko'nikmasi hosil qilinadi.

Nechta?, qancha? yoki nechanchi? so'rog'iga javob bo'lgan bunday sonlar narsa va shaxsning nomini bildirgan so'zlarga bog'lanib, ularning sanog'i yoki tartibini ifodalashi amaliy o'zlashtiriladi va keyingi sinflarda sonning so'z turkumi sifatida o'rghanishga o'quvchilar tayyorlanadi.

Ma'lumki, son bir xildagi shaxs va narsaning miqdorini, sanog'ini yoki joylashish tartibini ifodalaydigan mustaqil so'zlardir.

Son otga bog'lanib ot ifodalangan shaxs va narsaning miqdoriy belgisini ko'rsatadi. Masalan, 10 ta o'quvchi, 2 ta kitob.

Son otga bog'lanmagan holda ham ishlatilishi mumkin. Bunday paytda mavhum miqdorni ifodalaydi. Hisob amallarida miqdor aniq shaxs va narsalarga bog'lanib ifodalanmaydi: Masalan o'n ikkiga beshni qo'shsak o'n yetti bo'ladi.

Mavzu: Narsa va shaxsning sanog'i va tartibini bildirgan so'zlar

Maqsad: Sanoq va tartibni bildirgan so'zlarni aniqlash va bunday so'zlardan nutqda ongli foydalanish ko'nikmasini o'stirish.

Darsning borishi:

I.Dars mavzusi bilan tanishtirish va suhbat yordamida tushuntirish.

Savollar xattaxtasining chap tomoniga yozib qo'yiladi. O'quvchilar bergen avob o'ng tomonga yoziladi.

-siz nechanchi sinfda o'qiyapsiz?

-biz 2-sinfda o'qiyapmiz.

-sinfingizda nechta o'quvchi bor?

-sinfimizda 25 ta o'quvchi bor.

-a'lochilar qancha?

-A'lochilar to'rtta.

O'quvchilar yoki o'qituvchi birinchi savolni o'qiyo. O'quvchilardan biri javob beradi.

-Birinchi gapda qaysi so'z so'rashni bildirayapti? O'ylab ko'ring. Gapni qayta o'qing, so'ng aytin (O'quvchilar nechanchi so'zini aytishda qiyalsalar o'qituvchi o'zi tushuntiradi).

-Endi shu so'roqqa bergen javobingizni o'qing. Nечани? So'rog'iga javob bo'lgan so'zni aniqlang (ikkinchi).

-(nechanchi?) sinf. (ikkinchi sinf). Shu ikkinchi so'zi qaysi so'zga bog'langan (sinf so'ziga). To'g'ri aytdingiz. (nechanchi?) ikkinchi sinf. Ikkinchi sifni bitirib, nechanchi sinfga o'tasiz?

-Nutqimizda birinchi, ikkinchi, uchinchi... , o'ninchi ... kabi so'zlar juda ko'p. Bunday so'zlar narsalarning tartibini bildiradi. Birinchidan keyin albatta tartibi bilan ikkinchi keladi.

-ikkinchi savolni o'qing. Shu gapda qaysi so'z o'quvchi sonini o'rganishni bildirayapti? (nechta?) bergen javobingizni o'qing. Nечта? so'rog'iga javob bo'lgan so'zni aytin. (nechta o'quvchi? yigirma beshta o'quvchi).

-nechta? So'rog'iga javob bo'lgan yigirma beshta so'zi nimani, o'quvchilarning nimasini bildiryapti (o'quvchilar soni, sanog'ini).

Uchinchi savol yuzasidan ham shunday suhbat o'tkaziladi.

O'qituvchi suhbatni yakunlaydi, demak nechanchi? So'rog'iga javob bo'lgan so'z sinfning tartibini, nechta?, qancha? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlar o'quvchilar va a'lochilar soni, sanog'ini bildiryapti.

II. Matndan nechanchi?, qancha? So'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni aniqlab, o'zi bog'langan so'z bilan birga yozing.

237-238-mashqlar.

III. Darslikdan qoidalar o'qitiladi.

IV. O'yin “Hisobla-chi?”

Kelishardi

Izlab buloq

Bir echki-yu

Ikki uloq

Suv bo'yida

Ayni shu choq

Yurar edi

Ikki o'rtoq

Hunarmand dedi:

-Qani o'rtoq,

Bosh qotirib

Ko'r-chi, bundoq.

Shularda bor

Nechta qulinq

Nechta oyoq

Hamda tuyeq. (B.Omonov)

Echki va uloqlarda nechta qulinq, nechta oyoq, tuyeq borligini aniqlab, quyidagicha yozadilar (nechta?) oltita qulinq, (nechta?) o'n ikkita oyoq, (qancha?) yigirma to'rtta tuyeq.

V. Topishmoqlar ustida ishlash. Sanoqni bildirgan so'zlarni aniqlash.

238-mashq.

VI. Darsni yakunlash.

-Darsda qanday so'zlarni bilib oldingiz? O'qituvchi o'quvchilar javobini umumlashtiradilar, xulosalaydi.

VII. Uyga vazifa. 244-mashq.

Tajriba-sinov ishi, uning natijalari.

Tajriba sinov ishini o'tkazishda Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani XTMFMT bo'limiga qarashli 13-maktabning 2-“A” va 2-“E” sinflari tanlab olindi.

Malumki, o'quvchilarni so'z turkumlari bilan tanishtirish ishlari 2-sinfdan boshlanadi. 1-2-sinflarda esa “Narsa-buyum-shaxs nomi”, “Harakati”, “belgisi”, “son-sanog'i” kabi tushunchalari amaliy tarzda tushuntiriladi. 3-sinfda esa ular atama sifatida o'rganila boshlanadi. Biz ham 2-sinfda “Morfologiya” bo'limini o'rganishga kirishishdan oldin darslarni kuzatdik, tahlil qildik. Tajriba-sinov ishi uch bosqichda olib borildi.

- 1.Aniqlovchi
- 2.Rivojlanuvchi
- 3.Solishtirma

I.Bosqich-aniqlovchi bosqichida boshlang'ich sinf o'qituvchilar bilan savol-javob o'tkazdik.

1.Sizningcha o'quvchilarga so'z turkumlarini o'rgatishning qanday ahamiyati bor? Shartmi?

2. 1-2-3-4 sinfda morfologiya bo'limiga kirish qismining qanday farqli tomonlari bor?

3.Son so'z turkumini bo'limini o'rganishda qanday uslublardan foydalanish mumkin?

4. Sanoq va tartib sonlarni o'rganishda qanday ko'rgazmalardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi?


5. Sanoq va tartib sonlarda asosan nimalar o'rganiladi?

Shu va shu kabi boshqa savollarga javob oldik, ammo bular bizni ko'p ham qanoatlantirmadi.

Shundan so'ng mavzuimiz yuzasidan 2-“A” va 2-“E” sinflarda sanoq va tartib sonlarni qay darajada bilishlarini bilish maqsadida, savol-javob, tahlil, test sinovi oldik hamda quyidagi me'zonlar bo'yicha o'quvchilar bilimini aniqladik:

- 1.Son so'z turkumi haqida bilimga egami?
- 2.Gapning tarkibidan sanoq va tartib sonlarni aniqlay oladimi?
- 3.Gapdagi sanoq va tartib son qo'shimchasini aniqlay oladimi?
- 4.Sonning xususiyatlarini aniqlay oladimi?

Sinflar	O'zlashtirish ko'rsatkichi								
	O'quvchi Soni	A'lo		Yaxshi		Qoniqarli		Qoniqarsiz	
2-A	38	7	18 %	11	29 %	14	37 %	6	16 %
2-E	34	7	21%	12	35 %	10	29%	5	15 %



II.Bosqich – Ushbu ma'lumotlarni olgach, 2-“A” sinfni tajriba sinfi, 2-“E” sinfni nazarot sinfi qilib tanlab oldik. Tajriba sinfida darslar bitiruv malakaviy ishimizda ilgari surilgan fikrlar, zamonaviy pedagogik texnologiya asosidagi dars ishlanchimalari turli metodlardan foydalangan holda olib borildi. Guruhlar bilan ishlandi. Darslarni hayot bilan bog'lab olib borildi, fanlararo bog'lanish yuzaga keldi. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga ham oddiydan murakkabga tomon

topshiriq berib, faol o'quvchiga qisman bo'lsada aylantirildi. Nazorat sinfida bir xil dars oddiy, an'anaviy usullarda o'tildi. Lekin o'quvchilarning o'zlashtirish bir muncha yaxshi.

III.Bosqich – Solishtirma, ya'ni tahlilda har ikki sinfda o'tilgan dars mashg'ulotlari, tajriba ishlari qanday natija bergenini bilish maqsadida, o'quvchilar bilan sanoq va tartib sonlar bo'yicha savol-javob, testlar o'tkazildi, turli xil boshqotirmalar berildi. Tajriba sinfi bo'lган 2-“A” snifida ijobiy, nazorat sinfida esa bir oz qoniqarli.

Biz o'quvchilar sanoq va tartib sonlarni qay yo'sinda o'rgangan ekanliklarini quyidagi mezonlar asosida aniqladik:

1.Og'zaki savol-javob. Bunda o'quvchilarga Necha? Nechta? Qancha? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar ishtirokida kichik matn tuzing. Unda sonning ma'no jihatdan turlari qatnashsin. Tuzgan matningizda sanoq va tarib sonning qo'shimchalari, tuzilishi kabi ma'nolariga oid beshta so'z qatnashsin kabi topshiriq berildi. Ular quyidagicha baholandi:

“5” (a'lo) – 5 ta tayanch iboraga to'liq javob bersa; mazmunan to'liq bo'lsa.

“4” (yaxshi) – tayanch iboralarga javob berishga harakat qildi, biroq mazmunan sayoz yoki 4 ta tayanch iboraga to'liq javob berdi.

“3” (qoniqarli) – javob berishga harakat qildi, ammo 3 tasigagina xolos, so'zlar, jumlalar bir-biriga bog'lanmagan, mazmunan sayoz.

“2” (qoniqarsiz) – javob berishga harakat qiladi, biroq qiynaladi; 2 tasigagina tayanch iborani izohlashga harakat qildi, mazmunan sayoz. Jumlalar bog'lanmagan.

2.Yozma ish, ya'ni ijodiy fikrlarini bayon etish. Bunda o'quvchilarni uch guruhga bo'ldik va har bir guruhga alohida-alohida matn tuzish topshirildi. Xususan, 1-guruhga “O'quvchining kiyinish madaniyati”, 2-guruhga “Mening qishlog'im”, 3-guruhga “Odobli bola qanday bo'lishi kerak?” mavzularida topshiriq berilib, unda Necha? Nechta? Qancha? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar bilan bir qatorda -ov, -ovlon, -ala, -ta, -tacha, dona, nafar kabilarni ishtirok etishi lozimligi haqida uqtirdi.

“5” (a’lo) – Fikrlashi yaxshi, hayot bilan bog’langan, misollardan ko’proq keltirgan. Tayanch so’zni ma’nosini aniq ochib berilgan, husnixati qoniqarli, imloviy xatoliklar yo’q.

“4” (yaxshi) – Fikrlashi yaxshi, biroq hayotiy misollardan kam foydalangan. Tayanch so’zni ma’nosini nisbatan ochib berilgan, husnixatni qoniqarli, biroq 2 ta imloviy xatoliklari bor.

“3” (qoniqarli) – Fikrlash doirasi birmuncha yaxshi, biroq misollardan kam foydalangan. Tayanch so’zni ma’nosini ochib berishga harakat qilgan, biroq sayoz. Husnixati xunuk, 5 tacha imloviy xatoliklari bor.

“2” (qoniqarsiz) – Berilgan tayanch so’zlar ma’nosini deyarli ochib berilmagan, sayoz. Misollardan foydalanmagan. Husnixati xunuk, 5 tacha imloviy xatoliklari ko’plab uchraydi.

3. “Sanoq va tartib son” yuzasidan test. Bunda o’quvchilarni son so’z turkumi, uning o’ziga xos xususiyatlari, ma’nosiga ko’ra turlari haqida qanday bilimga ega ekanliklarini bilish maqsadida beshtadan test olindi va ular 1 balldan baholandi.

-5ta test savoliga javob bergan bo’lsa = 5 ball

-4ta test savoliga javob bergan bo’lsa = 4 ball

-3ta test savoliga javob bergan bo’lsa = 3 ball

-2ta test savoliga javob bergan bo’lsa = 2 ball

Baholar mezonlarining umumiy yig’indisi quyidagi ko’rinishga ega bo’ladi:

Buni quyidagi jadval va diagrammalarda ko’rish mumkin:


Sinflar	O’zlashtirish ko’rsatkichi								
	O’quvchi soni	A’lo	Yaxshi		Qoniqarli		Qoniqarsiz		
Tajriba sinfi 2-A	38	8	21 %	13	34 %	15	40%	2	5 %
Nazorat sinfi 2-E	34	7	21%	13	38 %	12	35%	2	6 %

Endi tajriba sinfi bo'lgan 2-“A” sinfni tajribadan oldingi va keying holatni kuzatamiz:


Sinf	O'zlashtirish ko'rsatkichi								
	O'quvchi soni	2 baho		3 baho		4 baho		5 baho	
Tajribadan oldin 2-A	38	6	16 %	14	37 %	11	29%	7	18 %
Tajribadan keyin 2-A	38	2	5%	15	40 %	13	34%	8	21 %

O'zlashtirish samaradorligi oldin 47% ni tashkil etgan bo'lsa, keyin 56% ni tashkil etmoqda. 9% ga o'sdi, bu albatta “4” va “5” bahoga nisbatan edi. “5” bahoga esa 3% ga o'sdi.

2-diagramma



3-diagramma



XULOSA VA TAVSIYALAR

Ta’lim tizimidagi islohotlar munosabati bilan boshlang’ich ta’lim oldiga qo’yilgan talablar ona tili o’qitishda pedagogik texnologiyaning rivojlantiruvchi, differensiatsiya, shaxsni muayyan maqsadga yo’naltirish, izlanish, muammoli o’qitish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqazo etmoqda. Shuni hisobga olgan holda ona tili darslarini samarali tashkil etishga yordam beradigan, o’quvchining faolligini oshiradigan mustaqil ish, yarim izlanishli muammoli o’qitish, analiz, sintez, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalandik. Mazkur metodlarga mos metodik ish usullarini ishlab chiqdik. Bu albatta ona tili darslarini samaradorligini oshirish maqsadida qo’llaniladigan metod va usullardir. Zero ona tili darslarini mas’uliyat bilan o’tishdan maqsad, dars samaradorligini oshirishdir.

Ushbu maqsadlarning barchasi pirovard natijada insonlarni jamiyatda o’z o’rnini topishga, fikrlashga o’rgatish, dunyoqarashini kengaytirish. Insonlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashni esa kichik maktab yoshidan boshlang’ich sinfdan boshlashimiz lozim.

Shuning uchun ham ushbu bitiruv malakaviy ishi yozishda ona tili darslarini samarali o’tish usullari ochib beriladi. Tadqiqot ishlari o’tkazilib, ularning natijalari tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko’rsatdiki, ona tili darslarida ko’rgazmalilik ta’lim samaradorligini oshiradi.

Demak, ona tili darslarida, interfaol usullardan, umuman bir so’z bilan aytganda, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Ona tili ta’lim standarti ko’rsatkichlari bolani fikrlay olish, ifodalangan fikri anglash, o’z fikrini savodli, mantiqiy, izchilikka rioya qilgan holda bayon eta olishga o’rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

So’z turkumlarini o’rganishga tayyorgarlik 2-sinfdan boshlanadi. O’quvchilar 2-sinfda Kim? Nima? Kimlar? Nimalar? so’roqlariga javob bo’lgan so’zlar shaxs-narsani bildirishni, Nima qildi? Nima qiladi? so’roqlariga javob bo’lgan so’zlar shaxs-narsaning harakatini, Qanday? Qanaqa? so’roqlariga javob

bo'lgan so'zlar shaxs-narsaning belgisini, Nechta? Qancha? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar shaxs-narsaning sanog'ini bildirishi haqida ma'lumotga ega bo'lganlar. Ana shu ma'lumotlar asosida o'quvchilar 3-4-sinflarda shaxs-narsani bildirgan so'zlar ot, shaxs-narsaning belgisini bildirgan so'zlar sifat, shaxs-narsaning harakatini bildirgan so'zlar fe'l, shaxs-narsaning sanog'ini bildirgan so'zlar son deyilishini bilib oladilar. Ot, sifat, son, fe'l so'z turkumi ekani haqida ma'lumot oladilar.

Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda o'rgangan nazariyalarni va o'tkazilgan tajriba sinov ishlari natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ishlab chiqdik:

Sanoq va tartib sonlarni o'rghanishda yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha metodik tavsiyalar:

- 1.Ona tili ta'limi samaradorligini ta'minlashda ilg'or va samarali kafolatlangan darslar;
- 2.Loyihalashtirilgan darslar;
- 3.Zamonaviy, interfaol usullar asosida qurilgan darslar;
- 4.O'quvchining imloviy malakalarini rivojlantiruvchi darslar;
- 5.Integratsion dars turlaridan foydalanishni tavsiya etamizki, bunday darslar ta'lim samaradorligini oshiradi.
- 6.Darslar ko'rgazmalilik asosida o'tilsa,
- 7.Ona tili darslari boshqa fanlar bilan integrallashtirib o'tilsa,
- 8.Sanoq va tartib sonlarni o'tilganda jadvallardan foydalanilsa va albatta innovatsion texnologiyalardan foydalanish o'zining ijobiy samarasini beradi.

Фойдаланилган адабиётлар:

I Ижтимоий-сиёсий адабиётлар:

- 1.Каримов И. “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” Тошкент. “Ўзбекистон” 2011 йил 26-бет.
- 2.Каримов И.А. “Барча режа ва дастурларимиз ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қиласди”. “Маърифат” газетаси. №7. 2011 йил 4-бет.
- 3.Каримов И.А. Ўзбекистон ёшлари // “Халқ сўзи” газетаси. №217 сон. 2015 йил.
- 4.Мирзиёев Ш. Ўзбекистон Республикаси янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси //“Халқ сўзи” газетаси № 8-сон 2017 йил.
- 5.Мирзиёев Ш. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак! // “Халқ сўзи” 2017 йил №32
- 6.Мирзиёев Ш. Қонун устиворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг қарори// “Куч адолатда” газетаси. 2017 йил №47

II. Ilmiy uslubiy adabiyotlar:

- 1.Abdullajonova M. Boshlang’ich ta’lim o’quvchilarining o’zlashtira olmaslik sabablari // “Xalq ta’limi” jurnali, 2002 yil. № 6. 160-bet.
2. Aliyeva D, Nabiyeva S. Bolalar so’z boyligini oshirish yo’llari// “Xalq ta’limi” jurnali, 2006 yil. № 3. 60-bet.
3. Akramov Sh. Ona tili darslarida jadvallardan foydalanish// “Til va adabiyot” jurnali, 2004 yil. № 3. 9-bet.
- 4.Bekniyozova N. Gaplarni o’zaro bog’lashga doir mashqlar// “Boshlang’ich ta’lim” jurnali. 2008 yil. № 3.
- 5.Bobomurodova A. Ona tilidan tashkil etiladigan ta’ilimiyl o’yinlarning o’ziga xos xususiyatlari va unga qo’yilgan talablar// “Xalq ta’limi” jurnali, 2009 yil. № 3.

6.Qudratov O, G'aniyevT, Hayotiy faoliyat xavfsizligi.Toshkent. “Mehnat” 2004 yil.

7. Uzviylashtirilgan Davlat ta’lim standarti. Toshkent. 2010 yil.

8. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili o’qitish metodikasi.-T.: “Noshir” 2009 yil.

9. Qosimova K va boshqalar. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. T.: “Cho’lpon” nashriyoti. 2016-yil

10.Safarova R.Boshlang’ich sinflarda chuqurlashtirilgan ona tili ta’limining mazmuni “Uzluksiz ta’lim” jurnali № 3. 2009 yil.

11.Yo’ldasheva N.Darslarda interaol metodlardan foydalanish afzalliklari. “Xalq ta’limi” jurnali, 2008 yil. № 6.

12.Gaffarova T. Interfaol metodlar-ta’lim samaradorligi. “Boshlang’ich ta’lim” jurnali. 2008 yil. № 6.

13.Ergasheva A. Ona tili darslarida mazmundor gaplar tuzish// “Uzluksiz ta’lim” 2008 yil № 1.

14.FuzaylovaS, Xudayberanova M, Yo’ldasheva Sh. “Ona tili” 3-sinf uchun darslik, “O’qituvchi”.Toshkent.2010 yil.

15.Ikramova ba b.Ona tili 4-sinf “O’qituvchi”.Toshkent.2009 yil.

16.Xafizova I. Ko’rgazmalilik – dars samaradorligi “Boshlang’ich ta’lim” jurnali. 2006 yil. № 11.

Internet ma’lumotlari:

WWW.referat.uz.

WWW.Ziyonet.uz.